

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVYERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Vositova (Mamatova) Tursunoy Umarali qizi

NAMANGAN VILOYATI AHOLISI VA UNGA HOS HUSUSIYATLAR

5140600 geografiya (geografiya) ta`lim yo`nalishi bo`yicha
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi Z. A. Temirov

Andijon 2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. AHOLINI GEOGRAFIK O'RGANISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI.....	6
I.1 Aholi soni va dinamikasi ko'rsatkichlari.....	6
I.2. Aholi tarkiblari va uni o'rganish masalalari	18
IKKINCHI BOB. NAMANGAN -O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS IQTISODIY VA DEMOGRAFIK SALOHIYATGA EGA VILOYATI.....	32
2.1. Namangan viloyati geografik o'rni, ma'muriy-hududiy tuzilishi	32
2.2. Viloyat aholi soni dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar.....	37
2.3. Aholi tarkibi va undagi o'zgarishlar	45
2.4. Namangan viloyati aholi joylashuvi va urbanizatsiya.....	55
HULOSA	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	63

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbliligi. Aholi deganda ma'lum xududda yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanining qiziqtirib kelgan. Geografiya fanining tuzilishida iqtisodiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Bu bejiz emas edi. Chunki iqtisodiy geografiyaning vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning xududiy joylashish qonuniyatlarini o'rganishdir. Aholi esa, har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xom ashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, odam mehnati tufayligina harakatga keltiriladi. Inson mehnati ishlab chiqarish jarayonining eng ilg'or qismidir. Shunday qilib, aholi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning asosiy sub'ektidir. U barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi asosiy kuchdir.

O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda¹. Namangan viloyati O'zbekistonning o'ziga hos demografik salohiyatga ega viloyati bo'lib, mamlakat maydonini atigi 1,6% to'g'ri kelgani holda aholining 8.2% dan ortiq qismi to'g'ri keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida viloyatdagi mavjud demografik vaziyatni hisobga olish, aholi soni, dinamikasi va tarkibi, joylashuvi va urbanizatsiya rivojlanishidagi holatini tahlil etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat mazkur bitiruv malakaviy ishini **dolzarbliligi**ni belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Aholi va unga hos hususiyatlar to'g'risida ko'plab fanlar, jumladan iqtisodchilar, iqtisodiy geograflar, demograflar va boshqa fan vakillari o'rganadi. Ular ichida iqtisodiy geograflar muhim o'rin egallab, aholining soni, dinamikasi, tarkibi va hududiy tafovutlari hamda muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rganadi.

¹ <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси

O'zbekistonning demografik taraqqiyoti, uning xususiyatlari, omillari va muammolari I. Mullajonov, R. Ubaydullayeva, M. Qoraxonov, E. Ahmedov, O. Otamirzayev, L. P. Maksakova, A. Soliyev, H. Salimov, A. Qayumov, M. Bo'riyeva, O. A. Ergashev, E. Safarov, O. Saidahmedov, G. Murtazina, 3. X. Rayimjonov, R.K. Ortiqboyev va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan. Namangan viloyati aholisi haqida i.f.d. prof O.Abdullayev tomonidan keng o'rganilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan maqsad Namangan viloyati aholisi soni va dinamikasini, yosh va jinsiy tarkibi, joylashuvi va zichligini o'rganishdan iborat.

Vazifalari:

- ✓ Namangan viloyatining joylashgan geografik o'rni va ma'muriy hududiy tuzilishini o'rganish;
- ✓ Namangan viloyati aholisini soni va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va hulosalar chiqarish;
- ✓ Namangan viloyatida aholisi yosh va jinsiy tarkibi va undagi o'zgarishlar haqida mulohaza yuritish;
- ✓ Viloyatda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishiga hos hususiyatlar, aholisi joylashuvi va uning hududiy tafovutlarini aniqlash, hamda bu bilan bog'liq vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar hususida hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Namangan viloyati aholisi mazkur bitiruv malakaviy ishining **obyekti** bo'lib xizmat qiladi.

BMI ning predmeti. Namangan viloyati aholisi soni, dinamikasi, tarkibi, joylashuvi va urbanizatsiya jarayonini geografik jihatlarini o'rganishdan iborat.

BMI ning nazariy uslubiy asoslari. Mamlakatimizning geograf va demograf olimlarining ilmiy ishlari, o'quv uslubiy qo'llanmalari hamda O'zbekiston respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, hukumatimiz qarorlari xizmat qildi. Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida statistik, guruhlash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishda, mavjud ilmiy adabiyotlardan, Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, internet ma'lumotlaridan ham keng foydalanildi.

BMI ning ilmiy yangiliklari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- Namangan viloyati geografik o'rni va ma'muriy hududiy tuzilishi o'rganilgan va tahlil qilingan;
- Namangan viloyatida aholi soni va dinamikasi, bu bilan bog'liq holda aholi zichligining ortib borishi shahar va qishloq tumanlari kesimida tahlil qilingan.
- Aholining yosh va jinsiy tarkibi va undagi o'zgarishlar tog'risida fikr va mulohazalar keltirilgan;
- Aholi joylashuvi va urbanizatsiya jarayoni rivojlanishi hususida o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 62 betni o'z ichiga oladi. Matnda 14 ta jadval, 2 ta diagramma keltirilgan.

BIRINCHI BOB. AHOLINI GEOGRAFIK O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

I.1 Aholi soni va dinamikasi ko'rsatkichlari

Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy soni hisoblanib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy-demografik tavsiflardan biridir. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun demografik tahlilda aholi soni vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. U ma'lum bir vaqt aholini ro'yxatdan o'tkazish vaqti uchun, yil boshi, yil oxiri yoki yil o'rtasidagi holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi. Ushbu vaqtning belgilanishi, ayniqcha, yirik mamlakatlar yoki hududlar uchun juda zarur, bunda yil boshidagi va yil o'rtasidagi aholi sonidagi farq 100 mingni tashkil qilsa, yirik mamlakatlar uchun esa millionlarni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazishlar o'rtasidagi davr uchun esa tug'ilish, o'lim, migratsiyani hisoblash asosida olinadi. Ayrim mamlakatlar va hududlar, jumladan, o'tgan davrlar uchun aholi soni turlimanbalar: arxiv materiallari, tarixiy demografik va paleodemografik manbalar asosida aniqlanadi. Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi aholini hisobga olishning to'liqligiga bog'liq, shuning uchun avvallari ularning aniqligi past bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa doimiy ravishda aholini ro'yxatdan o'tkazish va aholini joriy hisobga olinish yo'lga qo'yilganligi sababli ozmi-ko'pmi aniqroqdir.

Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning qiyinligi ma'lum bir vaqtda olingan aholi sonining faktik miqdori, odatda, ma'lum bir sustkashlik bilan aniqlanishiga olib keladi. Shuning uchun aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pincha oxirgi yillar uchun aholi soni o'sish sur'atlari tendentsiyalarini ekstrapolyatsiyasiga asoslangan qisqa muddatli prognoz qilish yo'li orqali olinadigan baholar sifatida namoyon bo'ladi.

Aholi soni dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarning tahlili uchun tarkibiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, ayrim hududlarda yashayotgan aholi soni

va ulushini solishtirish. Bunda guruhlash va indekslar qo'llaniladi: o'sish va o'sish sur'atlari, teng bo'lmagan vaqt oraliqlari uchun esa o'sish va o'sish sur'atining o'rtacha yillik sur'atlari olinadi.

U yoki bu vaqt uchun aholi sonining o'zgarishi:

- birinchidan, aholining «**tabiiy o'sish sur'ati**» deb nomlanuvchi tug'ilganlar va o'lganlar miqdorining farqlari bilan;
- ikkinchidan, agar so'z mamiakat yoki aholi manzilgohi haqida ketadigan bo'lsa, ularning soni aholi migratsiyasi (keluvchilar va ketuvchilar nisbati) bilan aniqlanadi.
- Immigratsiya va emigratsiya o'rtasidagi farq aholining «**migratsion o'sishi**» deb nomlanadi.

Aholi sonini o'rganishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

➤ har bir keyingi davr uchun aholining mutlaq soni, uning avvalgi davr miqdoriga to'la bog'liqligi bilan ifodalanadi;

➤ vaqt ichidagi aholining rivojlanish jarayoni nafaqat aholining miqdoriy o'zgarishiga, balki aholi tarkibining sifatiga ham bog'liq bo'ladi.

Muayyan bir davr uchun aholi sonida (S) sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida dinamik qatorlar: $S_0, S_1, S_2, \dots, S_n$ dan bilib olish mumkin.

Aholi soni dinamikasini o'rganishda, odatda, quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1) Aholi sonining mutlaq o'sish sur'ati:

$$S = S_1 - S_0$$

2) Aholi sonining nisbiy o'sish sur'ati ($K\Delta$) promilleda o'lchanadi. **Promille**-ko'rilyotgan kattalikning mingdan bir ulushidir.

$$K\Delta = (\Delta S * 1000) / \bar{S},$$
$$K\Delta = \frac{(N - M) * 1000}{\bar{S}}$$

bu yerda: \bar{S} aholining o'rtacha yillik soni, u davr boshi va oxiriga aholi sonining yarim miqdori sifatida hisoblanadi; N -tug'ilganlar soni; M — o'lganlar soni.

3) Aholi sonining o'sish sur'ati:

$$T_p = \frac{S_1}{S_0}$$

$$T_{np} = \bar{T}_p - 100$$

bu yerda: (T_p) - davruchun o'sishning o'rtacha sur'ati;

4) **Hayotiylik indeksi** (I_v), tabiiy o'sish sur'atidan farqli o'laroq, u tug'ilganlarning (N) o'lganlar (M) sonidan farqini emas, balki nisbatini bildiradi:

$$I_v = \frac{N}{M} * 100$$

Tabiiy o'sish sur'ati va hayotiylik indeksi ko'rsatkichlari yordamida aholining **tabiiy harakat tezligi** o'lchanadi. Agar ma'lum bir vaqt oralig'i mobaynida tug'ilish soni o'lim sonidan ortib ketsa, keksa avlod ko'plab bolalar va nevaralardan iborat avlodlar tomonidan yangilanayotganligini taxmin qilish mumkin.

5) Aholini mutlaq o'sish sur'atining jadalligi koeffitsienti va aholi tabiiy o'sish sur'ati jadalligining o'zgarishi koeffitsienti. Ushbu koeffitsientlarning demografik mazmuni shundan iboratki, ular o'rganilayotgan aniq bir hududda yashayotgan aholining ikkita davr oralig'idagi ikkita tutash ro'yxatdan o'tkazish davrlaridagi aholi o'sish sur'atining tabiiy va mutlaq ko'rsatkichlarining o'rtachasini va ular o'rtasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni solishtirish imkonini beradi, bu orqali esa uzoq vaqt oralig'ida aholi dinamikasi jarayonlarining jadalligini tavsiflash mumkin bo'ladi.

Aholi soni dinamikasi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga, rivojlanishning tarixiy xususiyatlariga, demografik vaziyatga, shuningdek, mamlakatdagi va dunyodagi siyosiy holatga bevosita bog'liq bo'ladi².

Dinamika ko'rsatkichlari aniq bir hududdagi aholining vaqt ichidagi harakatini, uning o'sishi, barqarorlashuvi yoki kamayishi, ushbu rivojlanishning asosiy tendentsiyalarini aniqlash haqida birlamchi tasavvur qilish imkonini beradi.

²Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. — Т.: Ижтимоий фикр, 2009. — С.6.

Aholi soni kuzatilayotgan davr mobaynida o'zgaradi, shuning uchun omillar soni, masalan, tug'ilishlar soni mos ravishdagi vaqtida o'rtacha aholiga nisbati olinadi.

Aholining o'rtacha soni (o'rtacha aholi) — bu oddiy tadrijiy (xronologik) o'rtacha miqdorni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Agar aholi sonini vaqtning $S(t)$ funksiyasi sifatida olib qaraydigan bo'lsak, $t=t_0$ dan $t=t_0+T$ gacha bo'lgan davrda (bu yerda: T — kuzatish davri kattaligi) o'rtacha aholi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{1}{T} \int_{t_0}^{t_0+T} S(t) dt .$$

Integralning o'ng tomonida turgan son berilgan davr mobaynida aholi tomonidan yashab o'tilgan kishi-yilning umumiy sonidir. Uni T davr uzunligiga bo'ladigan bo'lsak, o'rtacha aholi sonini hosil qilamiz.

Yil boshi va yil oxiri soni mavjud bo'lgan holda aholining o'rtacha yillik sonining yarim miqdori aniqlanadi. Bunda ikki oraliqdagi davrlar orasidagi mavjud aholi sonining ma'lum bo'lgan miqdori bir tekisda o'zgargan, deb qabul qilinadi. Agar ushbu bir tekis o'zgargan miqdorni aholining mavjud harakatlanishi xususiyatlari keskin buzib yuborgan bo'lsa, ularni maxsus to'g'rilashlar asosida hisoblash mumkin bo'ladi. Masalan, agar yil boshi va yil oxiriga shahar aholisi sonidan tashqari 400 va 410 mingni tashkil qilganligi ma'lum bo'lsa va agar undan 60 ming o'rtacha 24 kunga yoki $\frac{1}{15}$ yilga ta'tilga ketgan bo'lsa, bu holat o'rtacha aholi sonini $\frac{1}{15}$ dan 60 minggacha kamaytirgan bo'lardi. Shunday qilib, o'rtacha aholi quyidagini tashkil qilgan bo'lar edi:

$$\frac{1}{2}(400+410) \cdot \frac{1}{15} \cdot 60 = 401 \text{ (ming)}$$

Agar kattaroq muddat uchun aholi to'g'risidagi ma'lumot faqatgina yil boshi va oxiriga mavjud bo'lsa, bunda ko'pincha berilgan davr oralig'ida notekis

taqsimlangan aholi sonining o'zgarganligi to'g'risidagi ehtimoldan kelib chiqish maqsadgamuvofiq bo'lib, uning doimiy sur'atini, ya'ni geometrik progressiyasini olish kerak. Bunda

$$S(t) = S_0 \left(\frac{S_T}{S_0} \right)^{\frac{t}{T}}$$

bu yerda: S_0 — davr boshida aholi soni, S_T — davrning boshlanishidan e'tiboran uning oxirgi davrida bo'lgan soni. Bunday holda:

$$\bar{S} = \frac{1}{T} \int_0^T S_0 \left(\frac{S_T}{S_0} \right)^{\frac{t}{T}} dt = \frac{S_T - S_0}{\ln S_T - \ln S_0}$$

ya'ni, butun davr davomida aholi o'sishini uning natural logarifmi o'sishiga bo'lgan nisbati.

Masalan, Farg'ona vodiysi aholisi 2000 yili 6009 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilga-kelib bu ko'rsatkich 6854 ming kishiga teng bo'lgan. U holda yuqoridagi formula bo'yicha quyidagi ko'rsatkichni hosil qilamiz:

$$\bar{S} = \frac{6854 - 6009}{\ln 6854 - \ln 6009} = 6431,5 \text{ (ming kishi)}$$

bunda bir tekisda o'zgarish gipotezasi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichga ega bo'miz:

$$0,5 (6009 + 6854) = 6431,5 \text{ (ming)}$$

Statsionar aholi-umumiy soni, yosh-jins guruhlarining soni o'zgarmas aholidir. Shu bilan birga, statsionar aholida tug'ilish va o'lim tartibi ham o'zgarmaydi. Yosh-jins tug'ilishiga keladigan bo'lsak, aholining statsionarligi u o'zgargan holda ham saqlanib qolishi mumkin: buning uchun ma'lum bir yoshlarda tug'ilishning ko'payishi uning boshqalarida kamayishi bilan kompensatsiya qilinadi. Shunday qilib, aholi soni muayyan hududda yashovchi aholining miqdori hisoblanadi va u yuqorida sanab o'tgan qator ko'rsatkichlar

bilan o'lanadi.

Tug'lish ko'rsatkichlarini tavsiflashda tug'ilishning umumiy koeffitsiyentidan foydalanilib, u muayyan davrda tug'ilganlar umumiy miqdorining o'sha davrdagi aholining o'rtacha soniga bo'lgan mutanosibligini ifodalab, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$n = \frac{N}{t \times P} \times 1000$$

Bu yerda: n - (tug'ilishning umumiy koeffitsienti);

N — organilayotgan davr mobaynida tirik tug'ilganlarning umumiy miqdori;

t — o'rganilayotgan davr davomiyligi (yillar);

P — o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Agar koeffitsient bir yil uchun hisoblansa, u holda $t = 1$ bo'ladi.

Masalan: 2009-yili O'zbekislonda tug'ilganlar soni 649700 kishini, doimiy aholi soni 28000800 kishini tashkil etgan. U holda respublikada tug'ilishning umumiy koeffitsienti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$n = (649700 / 28000800) \times 1000 = 23,2\%$$

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti, ayniqsa, statistik qayd qilish tizimi sust rivojlangan hududlarda keng qo'llanilib, axborotni hisoblashning oddiyligi bilan izohlanadi. Tug'ilishning umumiy koeffitsientining asosiy kamchiligi — aholining yosh-jinsiy tarkibi bilan uzviy bog'langanligi, aniqrog'i, surat va maxraj o'rtasidagi aniq namoyon bo'lgan farqdir. Uning suratida reproduktiv yoshdagi ayollarda tug'ilgan bolalar soni tursa (ularning jami aholidagi ulushi 25 % dan 30 %gacha bo'ladi), maxraj esa jami aholi (erkak, ayol, bolalar, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi va qariyalar) soniga teng. Bu yerdagi asosiy muammo qariyalar soni bilan bog'liq, ya'ni tug'ilishning keskin kamayishi aholining quyidan keksayishiga olib keladi. Shu tariqa, tug'ilishning yosh guruhlarida bo'yicha intensivligi teng bo'lganda aholi tarkibida qariyalar salmog'i oshgan sari tug'ilish umumiy koeffitsienti pasayib boradi.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsientidagi surat va maxraj o‘lchamlarini bir-biriga yaqinlashtirish va maxrajdan tug‘ilishga bog‘liq bo‘lmagan aholi qatlamlarini chiqarib tashlashga qaratilgan urinishlar natijasida tug‘ilishning maxsus koeffitsienti paydo bo‘lgan; ushbu koeffitsient tug‘ilishlar soni va reproduktiv yoshdagi ayollar soni mutanosibligini ifoda etib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = \frac{N}{W_{15-49}} 1000$$

Bu yerda: W_{15-49} — reproduktiv yoshdagi ayollar soni;

N — organilayotgan davr mobaynida tirik tug‘ilganlarning umumiy miqdori;

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, ushbu ko‘rsatkich tug‘ilishning umumiy koeffitsienti bilan uzviy bog‘liq, ya‘ni tug‘ilishning umumiy koeffitsientida kasr maxrajida jami aholi qo‘yilsa, maxsus koeffitsientda esa reproduktiv yoshdagi ayollar miqdori ishlatiladi. Agar reproduktiv yoshdagilar doirasida eng ko‘p bola tug‘adigan ayollar (30 yoshgacha) ko‘proq bo‘lsa, tug‘ilishning maxsus koeffitsienti yuqori, aksincha, aholi tarkibida reproduktiv salohiyati tugab boradigan yoki tugagan avlodlar ko‘p bo‘lsa, u holda tug‘ilishning maxsus koeffitsienti past boladi. 1-jadvalda tug‘ilishning maxsus koeffitsientini baholash mezoni keltirilgan.

1-jadval

Tugilishning maxsus koeffitsientini baholash mezoni

Reproduktiv yoshdagi har 1000 ta ayolga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar soni	Tug‘ilish darajasi tavsifi
64 dan past	Past
64-100	O‘rtacha
101-120	O‘rtachadan yuqori
121-160	Yuqori
161 va yuqori	Juda yuqori

Manba: Abdurahmanov Q., Abduramanov A. “Demografiya” T.: 2011

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tug'ilishning maxsus koeffitsienti 64 %odan kam bo'lsa tug'ilish darajasi past, 121 %o dan baland bo'lsa yuqori hisoblanadi. Mazkur mezon bo'yicha O'zbekistondagi holatga baho berilsa, 2008- yili respublikada tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti 84,2 %o ga teng bo'lgan. Bu esa, tug'ilishning o'rtacha darajada ekanligini korsatadi.

Tug'ilish intensivligini aniq tarzda baholash uchun alohida yosh guruhlariga ajratilgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi Ular bir yillik yosh guruhlariga nisbatan hisoblanib, yosh tarkibi xususiyatlandan to'la mustaqil bo'ladi. Biroq, ushbu hisob-kitoblar quyidagi ba'zi cheklanishlarga ega: aholining yosh tarkibiga doir to'g'ri ma'lumotlar faqat aholini ro'yxatdan o'tkazilgan davr uchun olinishi mumkin, ushbu sanadan uzoqlashgan sari tug'ilish, o'lim, migratsiyaga oid statistik ma'lumotlar yordamida hisoblab chiqilgan korsatkichlar bilan bog'liq qayta hisoblarda ba'zi noaniqliklar yuzaga keladi. Shu sababli amaliyotda tug'ilishning yosh guruhlan bo'yicha koeffitsientlari 5 yillik yosh guruhlariga ko'ra hisoblanadi. 20 yoshgacha, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39 40-44 va 45-49 yoshlar. Ayrim hollarda (tug'ilish yuqori'bo'lgan hududlarda) tug'ilish koeffitsientini 50 yoshdan yuqori yoshda- gilarida ham aniqlash maqsadga muvofiq.

Sanab o'tilgan yosh guruhleri orasida eng ko'p muammo 20 yoshgacha bo'lganlarda uchraydi. Chunki, nikohlilik maqomiga ko'ra, bu guruhga kirgan ayollar tarkibi turlichadir. Aftidan, ushbu guruhdagi tug'ilishlarning asosiy qismi 17 va undan yuqori yoshli ayollarga to'g'ri keladi, sababi O'zbekistonda ayollar uchun nikoh yoshi qilib 17 yosh belgilangan. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda ushbu guruhga tegishli uchta koeffitsientni qo'llash keng tarqalgan, bu: 15-17, 18-19, 15-19 yoshlar.

Tug'ilishmng yosh koeffitsienti — bu x yoshdagi onalarda bir yilda tug'ilgan bolalar sonining ushbu yoshdagi barcha ayollar soniga bo'lgan munosabati bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_x = \frac{N_x}{W_x} 1000$$

Bu yerda: N_x — x yoshli ayollarda tug'ilgan bolalar soni;

W_x — x yoshidagi ayollar soni.

Nikoh va reproduktiv mayl me'yorlarining faol o'zgarishlari sharoitida nikoh haqidagi qarashlarning o'zgarishi va rasmiy qayd qilinmagan juftliklarning keng tarqalishi sababli tug'ilish va uning yoshi bo'yicha xususiyatlarining tahlilida onaning nikohlilik maqomi bilan bog'liq holda tug'ilishning ro'y berishi katta ahamiyatga ega. Bunday tahlilning to'la shakli faqat aholini ro'yxatga olgan yillarda o'tkazilishi mumkin, chunki o'sha davrda turli yoshdagi ayollarning nikoh bo'yichataqsimlanishiga doir ma'lumotlar jamlanadi. Tug'ilishning joriy qayd qilinishi faqat mazkur yildagi umumiy tug'ilganlar orasida nikohsiz tug'ilganlar ulushini aniqlash imkonini beradi.

Nikoh da va nikohsiz tug'ilish holati o'rganilganda qator jihatlarni e'tiborga olish zarur. Birinchidan, ayollarning nikohlilik maqomi ularning so'zlariga ko'ra qayd qilinib, bunda hujjatlar bilan tasdiqlanish talab qilinmaydi. Biroq, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida bola qayd etilayotganda esa onaning (ota-onaning) nikohlilik maqomi nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma yordamida aniqlanadi. Ikkinchidan, nikohsiz tug'ilgan bolalar orasida quyidagi ikki toifa mavjud: ota-onaning birgalikda bergan arizasiga ko'ra qayd etilgan va onaning arizasiga ko'ra qayd etilgan bolalar. Birinchi toifa ko'proq uchraydi. Nikohsiz tug'ilishning keng tarqalib borishi norasmiy nikoh ittifoqlarining soni o'sishi bilan bog'liq.

Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti hisoblariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi barcha ayollar farzand ko'radilar. Shu o'rinda aytish kerakki, tug'ilishni yig'indi koeffitsientining real nikohlilik, o'lim, bevalik, ajralish, ayrim ayollardagi bepushtlilik hollarini hisobga olgan holda tuzatish algoritmi 1983 yili A.B.Sinelnikov tomonidan tavsiya etilgan. Uning hisob-kitoblari natijalarining ko'rsatishicha, oddiy avlodlar almashinuviga erishish uchun bir samarali nikohga 2,5-2,6 bola to'g'ri keladigan tug'ilishning yig'indi koeffitsienti qiymati talab qilinadi.

Tug‘ilish darajasini ifodalashda farzandlilik koeffitsientining o‘rni katta. **Farzandlilik koeffitsienti** deganda, 0-4 yoshdagi bolalar sonining reproduktiv yoshdagi ayollar (15-49 yosh) soniga nisbati tushuniladi. Ba'zida farzandlilik koeffitsiyentini hisoblashda sur‘at sifatida 0-9 yoshdagi bolalar soni olinadi, maxraj sifatida esa - 20-49 yoshdagi ayollar soni olinadi.

Farzandlilik koeffitsienti tarkibiy koeffitsiyent bo‘lishi bilan bir qatorda tug‘ilishning yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlari tizimiga kirmaydi, biroq u tug‘ilishlar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning mavjudligi yoki mavjud emasligida yoki bo‘lmasa ishonchli emasligida, uning tavsifi uchun foydalanilishi mumkin. Farzandlilik koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$C/WR = \frac{Ch_{0-4}}{W_{15-49}}$$

Bu yerda: C/WR — farzandlilik koeffitsienti;

Ch_{0-4} — 0-4 yoshdagi bolalar soni;

W_{15-49} — reproduktiv yoshdagi ayollar soni.

Farzandlilik koeffitsientini tug‘ilishni dastlabki baholash va uning darajasini oldindan aytib berish uchun, ayniqsa, aholining tabiiy harakatini hisobga olish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, lekin yetarli darajada aniq ro‘yxatdan o‘tkazish ma‘lumotlari bo‘lgan mamlakatlarda foydalaniladi. Aytish joizki, farzandlilik koeffitsienti tug‘ilish ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda yuqori va aksincha tug‘ilish kam bo‘lgan mamlakatlarda past bo‘ladi.

Tug‘ilishlar taqvimi aslida tug‘ilishlar makoni, oilada muayyan davrda kutiladigan farzandlar soniga erishish jarayonini tavsiflaydi. U aniqroq ravishda protogenetik va intergenetik intervallar o‘lchamlari bilan tavsiflanib, aholini ro‘yxatga olish natijalari yoki ayollar orasida maxsus tadqiqot olib borish yo‘li bilan olinishi mumkin. Mazkur holda yosh, nikohga kirish yoshi (sanasi) va farzandlarning tug‘ilgan sanalari ketma-ketlikda qayd qilinishi lozim. Birinchi farzand tug‘ilgan sanadan onaning nikohga kirish sanasini ayirish yo‘li bilan protogenetik interval aniqlanadi. Agar tug‘ilish ongli, ommaviy tarzda

cheklanmagan va ixtiyoriy farzandsizlik tarqalmagan bo'lsa, u aksariyat hollarda bir yildan oshmaydi. Har keyingi farzandning tug'ilgan sanasidan oldingi farzandning tug'ilgan sanasini ketma-ketlikda ayirish yo'li bilan intergenetik interval qiymatlari hisoblanadi va farzandlar tug'ilgan sanalar bilan onaning tug'ilgan sanasini taqqoslab, onaning har bir farzandini dunyoga keltirganidagi yoshini aniqlash mumkin.

Tug'ilishlar taqvimining barqarorligini aniqlash uchun tug'ilishning joriy statistik qayd qilinishiga nisbatan qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Eng oddiy ko'rsatkich — bu umumiy tug'ilishlar sonidagi har bir navbatdagi tug'ilishning ulushi va u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$d_i = \frac{N_i}{N} \times 100$$

Bu yerda: N_i — i navbatidagi tug'ilishlar soni.

Hisob-kitoblar va umumiy tug'ilishlar onaning yoshi bo'yicha ajratib olib berilishi mumkin. Ushbu holda maxrajda mazkur yoshli onada tug'ilganlar soni, suratda esa mos ravishda o'sha yoshdagi onalarda ushbu navbatdagi tug'ilgan bolalar soni yoziladi.

Keyingi qadam — bu tug'ilishning o'rtacha navbatliligini hisoblash. U barcha tug'ilishlar uchun quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q = \frac{\sum N_i x q_i}{N}$$

Bu yerda: q — tug'ilish navbatliligi raqami.

Mazkur formula orqali alohida yosh guruhlaridagi ayollar uchun hisob-kitoblar ham olib boriladi, u ham maxrajga ushbu yoshdagi ayollarda tug'ilgan bolalar soni, suratga esa alohida navbatlilikdagi tug'ilishlar soni yoziladi.

O'lim avlodlarni xayotdan ko'z yumish jarayonini ifodalaydi va qator omillar (endogenekzogen) ta'sirida sodir bo'ladi. O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarida, avlodlarda, davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo'ladi. O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi. O'limning umumiy koeffitsienti:

$$m = \frac{M}{TP} \cdot 1000$$

m - o'lim umumiy koeffitsienti (promilleda ifodalanadi).

M - o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni.

T - davr.

P - o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

O'limning umumiy koeffitsientiga xam aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ko'pligi o'limning umumiy koeffitsientini ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. O'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq o'rganishda uning maxsus koeffitsientlari-yosh guruhlari va jinslar bo'yicha alohida ifodalanadi.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti alohida yoshlar (1,2,3,4,5,...) yoki yosh guruhlari (1-4, 5-9, 10-14...) bo'yicha hisoblanib har 1000 ta o'rganilayotgan yoshdagi aholiga nisbatan shu yoshdagi o'lganlarning o'rtacha ifodalanadi.

$$M_{x1x+z} = \frac{Mx2x+z}{TPx2x+z}$$

M_{x1x+z} - o'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti ifodasi.

T - o'rganilayotgan davr, yil.

M_{x1x+z} - o'rganilayotgan yosh guruhidagi jami o'lganlar soni.

P_{x1x+z} - o'rganilayotgan yosh guruhidagi aholining o'rtacha soni.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti yordamida har bir yosh guruhida sodir bo'layotgan o'lim hollari va omillari o'rganiladi, va o'lim jadvali tuzishda foydalaniladi. Aholi guruhidagi o'lim jarayoini o'rganishda go'daklar o'limi, ya'ni bir yoshgacha (0-12 oy) bo'lgan bolalar o'limi ham juda

ahamiyatlidir. Chunki, ko'p hollarda go'daklar o'limi bir muncha ko'proq bo'lib, aholi o'limining umumiy koeffitsientining yuqori bo'lishiga sabab buladi. Shuning uchun ham gudaklar o'limi alohida hisoblanadi.

Go'daklar o'limi har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan, shu yoshda o'lgan go'daklarning sonini bildiradi va promilleda ifodalanadi.

$$\frac{\text{Bir.yoshgacha'lg an.bolalar.soni}}{\text{o'rganilayotgan.davrdagibir.yoshgachabo'lg an.tirik.tug'ilg an.bolalar.soni}} \cdot 1000$$

Aholi o'lim darajasini o'rganishda onalar o'limini mukammal o'rganib borish zarurdir. Onalar o'lim tug'ilish darajasi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan sust, davlatlarda baland bo'lib, aholi o'lim ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida kuzatiladigan o'limning miqdor ko'rsatkichlari aholining yosh va o'lim sabablari bilan bog'liq bo'lgan omillar yig'indisi yordamida aniqlanadi.

I.2. Aholi tarkiblari va uni o'rganish masalalari

U yoki bu alomatlar bo'yicha ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazishda va demografik hodisalarni hisobga olishda inobatga olinadi. Ushbu alomatlar bo'yicha aholi tarkibi haqidagi umumlashgan ma'lumotlar tuziladi. Lekin, demograf uchun aholining takror barpo bo'lishiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan aholi tarkibi va tavsiflari qiziqarlidir, chunki ulardagi o'zgarishlar bevosita va eng katta ta'sir qiluvchilardir. Bunday tarkiblar, yuqorida aytilganidek, «demografik tarkiblar» deb yuritiladi. Demografik tavsiflar unchalik ko'p emas: jins, yosh, nikoh va oilaviy holati, shuningdek, yuqorida aytilgan vital hodisalar tavsifi. Demografik o'zgaruvchilar ichida birinchi o'rinlar jins va yosh, oila (uy xo'jaligi) tavsiflariga tegishlidir. Demografik tarkiblar ichida esa aholining — jins, yosh va nikoh-oila tarkiblariga tegishli bo'lib, ular bilan biz quyida tanishib chiqamiz. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi bilan esa «Nikoh va ajralishning demografik mohiyati» va «Oila va uning demografik taraqqiyoti» boblarida ko'rib chiqiladi. Tanishishni, avvalo, aholining jinsiga ko'ra tarkibdan

bilan boshlaymiz.

Aholining jinsiy tarkibi. Aholining jinsiy tarkibini o'rganish muhim demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Aholining jinsiy tarkibini yoritishdan oldin «jins» tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Biologiya fani jinsni jinsiy ko'payishni ta'minlab beruvchi organizmning genetik, morfologik va fiziologik xususiyatlarining jamlanmasi sifatida ko'rib chiqadi.

Insonga nisbatan jins odam tanasining (genetik, morfologik va fiziologik) reproduktiv, hulqiy, ijtimoiy, ijtimoiy-ruhiy va ruhiy alomatlarining majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi, ular insonni erkak yoki ayol sifatidagi shahsiy biologik va ijtimoiy maqomini belgilab beradi.

Jins yetarli darajadagi «odatiy» alomat bo'lib, unga ta'rif berishda ba'zan ma'lum bir qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Lekin, ushbu muammoli holatlarning vujudga kelish ehtimoli juda kam. Ko'pchilik hollarda inson nafaqat o'zining, balki boshqalarning ham jinsini yetarli darajada oson aniqlay oladi. 1-jadvalda inson jinsini aniqlashning turli jihatlari keltirilgan bo'lib, ular turli fanlarning predmetini qamrab oluvchi jinsning kompleks tushuncha sifatidagi murakkabligini ochib beradi.

So'nggi yillarda «biologik jins» va «ijtimoiy jins» tushunchalarini farqlash yo'nalishi vujudga keldi. Ayniqsa, ijtimoiy jins «gender» nomi bilan atalmoqda, uning asosini esa erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei tashkil qiladi. Bunga qarshi o'laroq «biologik jins»ni oddiy qilib «jins» deb atashmoqda.

2-jadval

Inson jinsining turlari

Nomi	Alomatlar tavsifi
Genetik jins	Hujayralardagi XX (ayol jins) yoki XY (erkak jins) xromosamalarining mavjudligi
Gonad jins	Jinsiy bezlarning tuzilishi (tuxum va tuxumdonlar)
Garnet jins	Jinsiy bezlarning spermatozoidlar yoki tuxum

	hujayralarini isilab chiqara olish qobiliyati
Gormonal jins	Jinsiy bezlarning erkak (androgen) yoki ayol (estrogen) jinsiy gormonlarini isilab chiqarish vazifasi
Morfologik (somatik) ichki va tashqi jins	Ichki reproduktiv organlar va tashqi genetaliya- lar (genital tashqi ko‘rinish)ning tuzilishi
Askriptiv (yozib qo'yil- gan), fuqarolik jinsi	Bolaning tug‘ilgandagi tashqi ko‘rinishi
Jins tarbiyasi	Bolani aksriptiv jinsiga mos ravishdagi tarbiyalanishi bo'yicha jinsi
Pubertat jins	o‘z ichiga androgenlar va estrogenlar ishlab chiqarilishini oluvchi jinsiy yetuklikdagi xususiyatlar (pubertat gormonal jins), gormonlar ta’siri ostida shakllanuvchi ikkilamchi jinsiy alomatlar (pubertat morfologiya) va erotik hissiyotlar (pubertat erotizm)
Ruhiy jins yoki jinsiy o‘zini-o‘zi anglash	Individning o‘zini erkak yoki ayol sifatida anglab yetishi
Ijtimoiy jins	Erkak yoki ayolning jamiyatdagi jinsiy o‘rni

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 72 b

Aholining jins tarkibi — aholining erkaklar va ayollarga taqsimlanishidir. Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishning quyidagi ikkita yondashuvidan foydalaniladi:

- Birinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;
- Ikkinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Odatda, jinslar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to‘g‘ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi (yoki kam hollarda ayollar sonining har 100 yoki 1000 erkakka to‘g‘ri keladigan nisbati ham olinadi).

Aholining jins tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta’siriga bog‘liq bo‘ladi: tirik tug‘ilganlar orasidagi o‘g‘il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati; differensial o‘lim darajasi, ya’ni turli yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘lim darajasining farqi; migratsiya jadalligidagi jinslar farqi. Birinchi

omil (jinslarning ikkilamchi nisbati) barcha aholi uchun amaliyotda bir xil va o'zgarasdir, shuning uchun bu yerda asosiy rollar differensial o'lim darajasi va migratsiya jadalligidagi jinslar farqiga tegishli bo'lib, ular mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liqdir.

Demografiyada jinslar nisbatining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi turlarini farqlash qabul qilingan.

Jinslarning birlamchi nisbati ostida urug'lantirishdagi erkak garmet (homila) sonining ayollar soniga nisbati tushuniladi. Avvallari ushbu nisbat taxminan 100 ayol homilalariga nisbatan 125-130 erkak homilalari to'g'ri keladi, deb hisoblangan³. Lekin, XX asrning oxirgi o'n yilliklarida ushbu dalilni shubha ostiga qo'yadigan ma'lumotlar vujudga keldi. Jinslarning birlamchi nisbati bevosita hisoblanishi mumkin emas. Odatda jinslarning birlamchi nisbatini aniqlashda tirik tug'ilganlar orasidagi jinsiy farqlar, ona qornidagi kech o'lim holati va tabiiy abortlar haqidagi ma'lumotlarni hisoblashga asoslangan bilvosita usuldan foydalanish qabul qilingan. Ushbu usuldan foydalanishga asoslangan maksimal baholashdagi jinslarning birlamchi nisbati 170 ta erkak homilasiga 100 ta ayol homilasi to'g'ri kelishi aniqlangan, lekin odatda, ular pastroq. Xususan, zamonaviy, qat'iy uslubiy ma'lumotlar ushbu ko'rsatkich kattaligini 115 ga teng kelishini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu barcha baholashlar asosan mavhumiy tavsifga ega bo'lib, bu tushib qolish ehtimoli katta bo'lgan urug'lantirishning birinchi haftalari o'lim xavfidagi jinslar farqi to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Ayrim mualliflarning fikricha, homiladorlikning oxirgi bosqichlarida erkak homilalarining o'lim darajasi yuqori bo'lsa, ayol embrionlari uchun urug'lanirishning birinchi haftalarida o'lim xavfi yuqori bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda homiladorlikning boshlang'ich bosqichlarida jinslar farqidagi o'lim darajasi to'g'risida yetarli darajadagi batafsil ma'lumotlar mavjud emas. Aytish joizki, jinslarning ikkilamchi nisbati

³ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 73 b

to'g'risidagi ma'lumotlarni, kech ona qornidagi o'lim darajasini va tabiiy abortlari birlamchi jinslar nisbatiga nisbatan ekstrapolyatsiya qilish mumkin emas. Muqobil yondashuvga asoslangan, X va Y xromosomalarga ega mos ravishdagi spermatozoidlar sonining nisbatini aniqlashga asoslangan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinslarning birlamchi nisbatini 100 ga teng bo'lishi mumkinligini ta'kidlash imkonini beradi.

Bugungi kunga qadar jinslarning birlamchi nisbatini bevosita hisoblashning imkoni mavjud emas. Homiladorlikning ikkinchi oyida erkak embrionlarining soni ayol embrionlarining soniga nisbatan katta bo'lishi haqidagi dalil har qanday mulohazalardan xoli. Bu holat erkak urug'lanishlar sonining yoki homiladorlikning birinchi bosqichlarida ayol embrionlarida o'lim darajasining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu omillarning ta'siri ostida jinslarning ikkilamchi nisbati shakllanadi.

Jinslarning ikkilamchi nisbati — bu tirik tug'ilganlar orasida o'g'il bolalar sonining qizlarga nisbatidir. U asosiy biologik o'zgarmas konstanta bo'lib hisoblanadi va taxminan 100 nafar qizga o'g'il bolalarning 105-106 ta tug'ilishi nisbatiga teng yoki boshqa so'z bilan aytganda, har 1000 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarga doimo taxminan 512 nafar o'g'il bola va 488 nafar qiz bola to'g'ri keladi⁴.

Jinslarning ikkilamchi nisbatida doimiy kattalik bo'lishiga qaramasdan bir qator omillar ta'siri bilan o'zgarib turadi. Xususan, nikohsiz bolalar o'rtasidagiga nisbatan nikohdagilar orasida o'g'il bolalar soni ko'proq boladi. Tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar hissasi onalar yoshining ulg'ayishi va tug'ilish tartib raqamining o'sishi bilan kamayib boradi. Masalan, 20 yoshgacha bo'lgan onalarda har 100 ta qizaloqqa 130 ta o'g'il bola to'g'ri keladi, 38-42 yoshdagi onalarda esa u atigi 90 ni tashkil qiladi, xolos.

Yaqin o'tmishdagi urushlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kamayishi, shu jumladan, urush tugagandan so'ng uning ortishi dalili ajabtovur hodisa

⁴ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 74 b

sifatida qaralgan. Urush davrida homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarining o'zgaruvchanligi, ona qornidagi o'lim darajasidagi jinsiy farqlar tibbiyotchilar, statistlar va demograflar tomonidan ilmiy isbotlab berilmaguniga qadar bunga hatto qandaydir sirli hodisa sifatida qaralgan.

Urush davrida ushbu sharoitlar yomonlashadi, bu esa ona qornidagi o'lim darajasining ortishiga olib keladi, avvalambor, erkak homila va urug'lantirishlarda o'lim darajasining ortishiga olib kelib, bu esa o'z navbatida, jinslarning ikkilamchi nisbatini kamaytirib yuboradi. Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida ota-onalar o'rtasida yoshi kattalar hissi ortib ketadi, bu ham homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarini yomonlashtiradi. Urush tugagandan so'ng ota-onalar yosh tarkibining yosharishi orqali homiladorlikni ko'tarib yurishning sharoitlari yaxshilanadi.

Umuman olganda, jinslarning ikkilamchi nisbatidagi tebranishlar ona qornidagi bolaning o'lim darajasidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi, u esa, o'z navbatida, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va sanitar-gigienik sharoitlar bilan belgilanadi. Aynan shuning uchun vaqt o'tishi bilan jinslarning ikkilamchi nisbati xuddi rivojlangan mamlakatlarda kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan uning soni katta bo'lgani kabi ko'tarila boshlaydi. Biroq, demograflar jinslarni ikkilamchi nisbatining mayl omili ta'sirida vujudga kelganligi, ya'ni bevosita urug'lanish jarayoniga atayin ta'sir o'tkazish va homiladorlik davrida bo'lajak bolaning jinsini to'g'rilash maqsadida harakatlar qilinganligi sababli katta qiziqish uyg'otadi. Aytish joizki, bu hodisa ko'p bolalikning ijtimoiy me'yorlari saqlanib qolgan va ko'p o'g'il bolalar ko'rishni hohlaydigan mamlakatlarda keng tarqalmoqda. Bunday mamla- katlarga Xitoy, Janubiy Koreya va Singapurni kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kattaligi tebranishlar doirasidan anchayin chetga chiqib ketgan, bu holat statistik xatoliklarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu mamlakatlarga nisbatan tadqiqotchilarning alohida e'tiborini tortmoqda. Janubiy Koreya, Tayvand va Singapurda XX asrning 80-yillarida jinslarning ikkilamchi nisbatining jadal o'sishi kuzatilgan va u 113:117 gacha etgan. Ushbu fenomen qadimdagi ko'p

o'g'il bolalarni ko'rishni xohlaydigan an'analarning zamonaviy ko'rinishini aks ettiradi va qizlarning kamsitilishi, ya'ni sof mayl omili ta'sirining natijasi bo'lib yuzaga chiqadi.

Qadimda ushbu kamsitish qizlarning chaqaloqligi va bolaligidagi o'lim darajasining juda yuqori bolganligida o'z ifodasini topgan, bu holat ularning chaqaloqligi va bolaligi davridagi parvarishning juda yomon bo'lganligining natijasidir. Hozirda fan-texnika yutuqlari asrida esa an'anaviy reproduktiv ko'rsatmalar, agar tug'ilajak bolaning jinsi qiz bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, sun'iy ravishda homiladorlikni to'xtatish amalga oshirilmoqda. Qizlarning tug'ilishidagi kamsitishning reproduktiv xulqi tug'ilishni kamaytirish siyosati ta'siri ostida yanada kuchaymoqda, bu esa aholining katta qismining intilishlariga qarama-qarshidir.

Amerikalik demograf D.Gudkindning ta'kidlashicha, Xitoyda amalga oshirilayotgan bir bolalik siyosati «ota-onalarni qiz tug'ilishini oldini olishning turli usullaridan uyg'unlashtirilgan holda foydalanishga yoki qiz tug'lishini yashirish: qizlardan voz kechish, tug'ilishlarni yoki oila tarkibini yashirish, hatto qiz chaqaloqlarni o'ldirishga ham olib kelmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda, tug'ruqqacha tashxis qilish sohasidagi zamonaviy yutuqlar ham ahamiyatli rol o'ynamoqda»⁵. Bu haqda faqat xitoylik mualliflarga emas, boshqa mamlakat ziyolilari ham yozishmoqda.

Tug'ruqqacha tashxis qilishning zamonaviy yutuqlari tug'ilajak bolaning jinsini boshqarish maqsadida Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlari aholisining ma'lum bir qismi tomonidan foydalanilmoqda. Tug'ilishni kamaytirish siyosati o'g'il bolani ko'p xohlashlikning yuqori darajasi saqlanib qolayotganligiga bog'liq ravishdagi kam bolali oilaga yo'naltirilganlikning o'sishi sharoitida ushbu amaliyot keng qo'llaniladi va test natijasi tug'ilajak bolaning jinsi qiz bola bo'lishi holatida, u sun'iy abortlar tebranishining o'sishiga olib keladi. Ayniqsa, bu bir yoki undan ortiq qizga ega tug'ilishning yuqori soni kuzatilgan oilalarga taalluqlidir. Ayrim tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, aynan Xitoyda ikki

⁵ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 76 b

yoki undan ko'p qizlarga ega bo'lgan oilalar uchun jinslarning ikkilamchi nisbati 200 dan ham ortib ketmoqda. Xuddi shunday holatni kontinental Xitoydagi kabi tug'ilishni cheklashning qat'iy siyosati mavjud bo'lmagan Tayvand va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham kuzatish mumkin.

Olimlar, jamoat arboblari va hukumatlar tomonidan sun'iy abortlarning o'sishiga olib keluvchi tug'ruqqacha jinsni aniqlash tashxisidan foydalanish holatlari salbiy baholanmoqda. Xususan, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy natijalarni yuzaga keltirayotgan ushbu amaliyotni qattiq qoralash "Aholi va rivojlanish" to'g'risidagi Xalqaro konferentsiyada (Qohira, 1994 yil) qabul qilingan Dasturda ham o'z ifodasini topgan. Dasturda tug'ilajak bolaning jinsini aniqlashdagi texnologiyalardan foydalanishning ortishi jins bo'yicha selektsiyani (yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarni oldirish amaliyoti bilan birgalikda) «halokatli (zararli) va beadablik (madaniyatsizlik)» sifatida tavsiflanishi ta'kidlangan.

Ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari tug'ruqqacha jinsning tashxisini amalga oshirish hamda u bo'yicha ma'lumotlar va xizmatlar olinishi, berilishi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunni qabul qilganlar. Shunga qaramasdan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ushbu ta'qiqning samaradorligi u qadar yuqori emas, ularning mavjudligining o'zi esa ayrim amaldorlar va tibbiyot xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalaridan foydalanib, ta'magirlik qilish va boshqa su'iste'molliklarni qilinishiga olib kelmoqda. Sun'iy abortlar orqali jins bo'yicha selektsiya qilishning ko'p yillik amaliyoti Xitoyda bir qator keskin demografik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga olib keldi. Hozirgi kunda bu hodisa mamlakatda nafaqat jinslarning ikkilamchi nisbatidagi nomutanosiblikka, balki faol nikoh yoshlarida ham mutanosiblik buzilishiga olib keldi. Mamlakatda avvallari kuzatilmagan «kelinlar tanqisligi» vujudga keldi, buning natijasida yosh xitoylik yigitlarning katta qismi butun umrga bo'ydoq qolish istiqboli qarshisida qoldi. Bu o'z navbatida, jinoyatchilikning yangi turi — yosh qizlarni nikohga kiritish maqsadida o'g'irlanishining vujudga kelishini ta'minlab berdi. Shu

o'rinda aytish joizki, Xitoyda kelinlar daromadli tovarga aylanib ulgurdi. Bu muammoning dolzarbligi ko'pgina mamlakatlardagi tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Olimlar dunyoda eng ko'p aholisi bo'lgan Xitoyda jinslar tengligi buzilishining salbiy oqibatlarini faol muhokama qilmoqda. Ushbu nisbatning buzilishi «bir oilaga bir farzand» siyosatining natijasi bo'ldi va uning oqibatida jins bo'yicha abort qildirishning ortishi va yoshligida qizlar o'lim darajasini ortirishiga olib keldi.

O'zbekistonda esa tug'ilishning kamayishi jarayoni XX asrning oxirlarida kuzatildi. Biroq, mamlakatda jinslarni ikkilamchi nisbatining buzilish holatlari kuzatilayotgani yo'q.

Jinslarning uchlamchi nisbati — bu reproduktiv yoshdagi yoki boshqa yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollarning o'zaro tengligidir. Jinslarning birlamchi va ikkilamchi nisbatidan farqli o'laroq jinslarning uchlamchi nisbati yosh-jinsdagi differentsial o'lim darajasi xususiyatlari va migratsion harakatchilikka bog'liq ravishda tebranib turadi.

Jinslarning uchlamchi nisbati ikkilamchi nisbat bilan birgalikda demografiyaning qiziqishlari doirasiga kiradi, chunki aholining takror barpo bo'lish tavsiflari va ayrim demografik jarayonlar ularga bog'liq bo'ladi. Ular faol va istiqboldagi nikoh darajasiga, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir o'tkazadi. Aynan shuning uchun demograflar umumiy aholining jinsiy tarkibini o'rganish kabi ushbu ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beradilar.

Aholining yosh tarkibi .Aholining yosh tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab aholining yosh tarkibini o'rganishdan oldin «yosh» tushunchasining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq.

Yosh — bu insonning tug'ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o'tgan vaqtdir. Yosh ikkinchi eng muhim demografik tavsiflardan biri bo'lib, u yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

Yosh ob'yektiv tavsif bo'lishiga qaramasdan inson hayotining yosh davri

konvetsionaldir va umrni (hayotni) uzunligi (davomiyligi) evolyutsiyasi mobaynida o'zgarib kelgan. Bir asr muqaddam «keksalik» deb yuritilgan yosh hozirda «keksalikka kirish» yoki «o'rta yosh» deb hisoblanmoqda.

Demografik hodisalar doimo u yoki bu yoshda amalga oshadi. Bunda ularning amalga oshishidagi tebranish yosh o'tishi bilan o'zgaradi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun demografiyada yosh har qanday demografik hodisaning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish yoshi va bola tug'ish yoshi, deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar haqida gapiriladi.

Kuzatish vaqtidagi muayyan bir guruh kishilarning yoshi haqidagi ma'lumot aholining yosh tarkibini shakllantirish imkonini beradi.

Yosh barcha demografik jarayonlarning umumiy koordinatasi hisoblanadi, ularning universal, mustaqil o'zgaruvchisi bo'lib hisobga olinadi va inson hayotidagi istalgan hodisalarni ro'yxatga (hisobga) olishda e'tiborga olinadi.

Yuqorida aytilganidek, yosh tug'ilgan vaqtdan so'ng oqib o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Biroq, demografiyada yoshning uchta ta'rifidan foydalaniladi: aniq yosh, yillar to'lgandagi yosh va kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh. U yoki bu ta'rif mavjud ma'lumotlar va maqsadlarni hisobga olinishi bilan tanlanib, ular uchun yosh hisoblab chiqiladi.

Aniq yosh — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'lchangan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

Yillar to'lgandagi yosh — bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lmagan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «Yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh o'z ta'rifidan ham

nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1979 yil), bunda uning kalendar yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan, $2010-1979=31$). Ta'kidlash joizki, kalendar yillar farqi sifatida hisoblangan yosh, agar tug'ilgan kunigacha hisoblab chiqilmasa yillar to'lgandagi yoshga teng bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda «kalendar yillar farqi sifatidagi 31 yosh» jumlasini inson 30 yoki 31 yil to'lgandagi yoshga tengligini anglatadi yoki o'z ichiga 30 dan 32 yoshgacha bo'lgan yillarni oladi.

Yosh haqidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, maxsus tekshiruvlar, jumladan tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonida olinadi. Bu masala nafaqat demograf uchun, balki boshqa ijtimoiy soha mutaxassislari uchun ham juda muhim, chunki yosh nafaqat demografiyada, balki deyarli barcha ijtimoiy jarayonlarda mustaqil o'zgaruvchi sifatida yuzaga chiqadi.

Aholining yosh tarkibi — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholining yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo'ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug'ilish va o'lim tendentsiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo'lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo'lajak talab, mintaqalarda saylovlarning natijalarini va shunga o'xshash masalalarni bilish imkonini beradi.

O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1 %ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 33,3 %ni, 16-29 yoshdagilar ulushi 28,8 %ni tashkil etadi⁶.

⁶ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 81 b

Aholining yosh tarkibini tuzish uchun odatda bir, besh, ba'zi hollarda o'n yillik oraliqlardan foydalaniladi.

Bir yillik yosh tarkibi — bu aholining quyidagi yillar to'lgandagi yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishidir: 0 yosh, 1, 2, ..., 34, 35, ..., 89, w yosh va undan kattalar. Q — bu qandaydir eng yuqori yosh bo'lib, uning asosida aholining bir yillik yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi yakunlanadi. Oxirgi yosh guruhi (w yosh va undan kattalar) ochiq yosh oralig'ini tarkib toptiradi, bunda w ning aniq kattaligi yangi tug'ilgan bolaning kutilayotgan umr davomiyligining o'rtachasiga va katta yoshlardagi aholining soniga bog'liq bo'ladi.

Besh yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 yosh, 35-39 yosh, ..., 80-84 yosh, ..., 100 yosh va undan kattalar. Bu standart yosh guruhlanishi deb nomlanadi va xalqaro demostatistika amaliyotida qo'llaniladi.

O'n yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-9 yosh, 10-19 yosh, 20-29 yosh, ..., 60-69 yosh, 100 yosh va undan kattalar.

Yosh tarkibidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlarni baholash uchun bundan yanada kattaroq yosh guruhlanishlari qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtai nazardan uch guruhga ajratiladi:

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar).

O'zbekiston milliy statistikasida aholi mehnatga layoqatliligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);
2. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar);
3. Mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar).

Aholi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko'ra 6 guruhga ajratiladi:

1. Bolalar (0-15 yosh) — mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo, ushbu aholi guruhining salmog'i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki, ushbu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resurslari safiga qo'shiladi.

2. O'smir yoshlar (16-24 yosh) — mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, mazkur guruh tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mavjud bo'lib, ularning mehnat faoliyatlari aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi.

3. O'rta yoshlilar (25-30 yosh) — ular o'zining jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari asosan o'zlarining aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'lgan va hayotda ma'lum bir yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin, ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki ularning orasida yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

4. 31-59 yoshdagi aholi — ushbu guruhdagi aholi o'zining yuksak mehnat shakliga ega bo'lib, hayotiy va mehnat tajribasining yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko'nikma va tajribalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etishadi va mehnat jamoasida alohida o'rin egallashadi. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegaralari aholisining iqtisodiy faollik darajasi boshqa qatlamlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori chegarasida pensiya yoshiga yetgan ayollar ham bo'lib, ular o'zlarining mehnat faoliyatlarini yakunlash taraddudida bo'lishadi.

5. Qariyalar (60-70 yosh) — mazkur qatlam vakillari pensiya yoshiga yetgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi. Lekin, ularning orasida o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar),

ular ham butunlay pensiyaga chiqish va mehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'lishadi.

6. Keksalar (70 va undan katta yosh) — ularning deyarli hammasi mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi.

IKKINCHI BOB. NAMANGAN -O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS IQTISODIY VA DEMOGRAFIK SALOHIYATGA EGA VILOYATI

2.1. Namangan viloyati geografik o'rni, ma'muriy-hududiy tuzilishi

Namangan viloyati nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo hududida takrorlanmas tabiiy manzaralarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Namangan viloyati Markaziy Osiyoning "javohiri" hisoblangan Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, hududining tuzilishi cho'zilgan to'rtburchakni eslatadi. Viloyat hududi g'arbdan sharqqa 130 km va shimoldan janubga 35 km dan 80 km gacha cho'zilgan. O'zbekistonning Farg'ona mintaqasi viloyatlari o'rtasida maydonining kattaligi jihatidan birinchi o'rinda turadi. Namangan viloyati shimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, shimoli-g'arb va g'arbda Toshkent viloyati va Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janub va janubi-sharqda Farg'ona va Andijon viloyatlari bilan chegaradosh.

Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasi Farg'ona vodiysi qismining eng katta xududi xisoblanib, uning maydoni 7,44 ming kv.km. Bu Farg'ona iqtisodiy rayonining 40,2 foizi, mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni demakdir.

Aholisi, 2017 yil dastlabki ma'lumotlariga qaraganda, 2652,4 ming kishi yoki respublika aholisining 8,3 foizi shu mintaqada yashaydi. Vodiya, garchi viloyat o'zining maydonini nisbatan kattaligi bilan ajralib tursada, aholi soni bo'yicha u Farg'ona va Andijon viloyatlaridan orqada turadi. Biroq shunga qaramasdan, respublika miqyosida Namangan viloyati aholisi zich joylashgan xududlar qatoriga kiradi.

Mamlakat mehnat taqsimotida Namangan viloyati, eng avvalo, dexkonchilik (paxta, pilla, meva etishtirish), engil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. U respublika yalpi xududiy maxsulotining 3,9 foizi, xalq iste'mol mollarining 3,7 foizi, qishloqxo'jaligi maxsulotining 7,2 foizi va chakana savdo xajmining 6,0 foizini beradi.

Viloyat xududining yarmidan ko'progi tog' va tog'oldi rayonlaridan tashkil topgan. Bu erda adir mintaqasi qo'shni viloyatlarga qaraganda keng tarqalgan va u

bog'dorchilik, uzumchilik hamda chorvachilik uchun qulay. Shu jixatdan Namangan viloyatining er fondi ham kattaroq. Biroq, uning eng chekka shimoli-g'arbiy qismi baland tog'liklardan iborat (balandligi 4000 metrgacha etadi). Jumladan, Pop tumanining eng chekka shimoli-g'arbiy qismida 4008 metr balandlikdagi joylar bor.

Orografik jihatdan viloyatning g'arbiy va shimoliy qismidagi Chotqol, Qurama hamda Farg'ona tizmalari G'arbiy Tyanshan tog' tizmalariga kiradi. Ularning asosiy qismi Pop tumanida kuzatiladi. Ushbu tumanning er usti tuzilishi ancha murakkab bo'lib, balandlik amplitudasi eng janubdagi 365-367 m balandlikdan 4008 m nuqtalar doirasida 3640 metrga teng. Darhaqiqat, Pop tumani respublikamizda tipik tog'li xududlar qatoriga kiradi va bu joyda "foydali er" koeffitsienti viloyatning boshqa tumanlariga qaraganda ancha past.

Niloyat hududida ayrim qazilma boyliklari ham mavjud. Ular Chodak, Chorkezar, Uyg'ursoy polimetall va kimmatbaho metallar hamda Mingbulok neft konlaridir. Ammo bu konlarda kazilma boyliklarining zaxirasi ko'p emas, binobarin, ular mintaqa iqtisodiyotiga kuchli ta'sir etmaydi.

Yog'in-sochin miqdori g'arbdan sharqqa tomon ortib boradi (100-400 mm). Asosiy gidrografik elementi Sirdaryo bo'lib, u shu nomda aynan viloyat xududida, Norin va Qoradaryoning qo'shilishi natijasida shakllanadi. Biroq Sirdaryoning erlarni sug'orishdagi ahamiyati katta emas, chunki u ancha pastlikda oqib o'tadi. Bu jixatdan uning irmoqlari - soylarning ahamiyati yukoriroq

Norin daryosi Qirg'iziston hududi, baland tog'liklardan vodiya chikkandan so'ng keng yoyilib ketadi. Xuddi ana shu erdan vodiyning aksariyat kanallari boshlanadi. Jumladan, Katga Namangan, Shimoliy Farg'ona, Katta Farg'ona, Katta Andijon kanallari Uchqo'rg'on shahri va Shamoldisoy shaharchasi yaqinidan boshlanadi. Katta Namangan kanali keyingi yillarda qurilgan bo'lib, u adir zonasining pastroq kismalarini sug'orishga mo'ljallangan. Umuman olganda esa, Namangan viloyati, aynissa, uning g'arbiy qismi suv bilan yaxshirok ta'minlanmagan. Aynan shu joylarda va tog'oldi xududlarda juda ko'p ariqlar bor. Ular suv omborlaridan boshlanadi.

Namangan viloyati tabiiy boyliklariga uning dori-darmon uchun foydalaniladigan turli xil o'tlar (farmatsevtika resurslari) hamda rekreatsiya maskanlarini ham kiritish mumkin. Bunday joylarga Chortoq, Pop tumanidagi Parda Tursun sixatgoxdari, Yangiqo'rg'on, Chust tumanlarining guzal landshaftlari misol bula oladi.

Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan Namangan viloyati eng qadimgi aholi joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Aholining o'troq hayot kechirishi va dastlabki sug'orma dexqonchilik to'g'risidagi ma'lumotlar eramizdan avvalgi VI-IV asrlarga borib taqaladi. Bu davrda Farg'ona vodiysi siyosiy-ma'muriy jihatdan shahar-davlatlar ittifoqidan iborat bo'lgan. Shimoliy Farg'onada eng yirik siyosiy-ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaz rolini Koson shahri (hozirgi kosonsoy) o'ynagan. Eramizning I asridan boshlab Farg'ona Buyuk Ko'shon imperiyasi tarkibiga kirgan va Farg'ona vodiysining markazi Koson shahri bo'lgan.

V-IV asrlarda Eftalitlar, VI-IVII asrlarda turk xoqonligi, VIII-IX asrlarda arablar, IX-X asrlarda Somoniylar, so'ngra Qoraxoniylar tomonidan, XIII asrlarda janubiy Farg'ona Xorazm shohi Muhammad, Shimoliy Farg'ona Naymanlar shohi Kuchluk-xon tomonidan bosib olindi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Temuriylar tomonidan boshqarildi. XVI asrda Markaziy Osiyo hududida Buxoro va Hiva honliklari, XVII asr boshlarida esa Farg'ona vodiysida markazi Qo'qon shahri bo'lgan Qo'qon xonligi yuzaga keldi.

Yuqoridagi davlatlar yakka hukmron-ya'ni jabha, amir va xonlar tomonidan boshqarilgan. Joylarda esa hokimiyat hukmron tomonidan tayinlangan mahalliy ulug' kishilar, harbiylar tomonidan boshqarilgan bo'lib, ma'muriy boshqaruv tizimiga (beklik, mingboshi, yuzboshi kabi) ega bo'lgan. Qo'qon xonligi davrida oliy hukmron xon bo'lgan. Xonliklarda yuqori darajaligi amaldorlar parvonachi, mingboshi (xondan keyingi ikkinchi kishi bo'lib, asosan davlat boshqaruvi bilan shug'ullangan) qushbegi, hokim, bek va boshqa quyi boshqaruv bosqichlariga bo'lingan.

Qo'qon xonligi davrida siyosiy-ma'muriy boshqaruv viloyat, beklik vasarkorliklarga bo'lingan. Namangan viloyati tarkibiga Koson, Namangan, Chortoq bekliklaridan tashqari shimoli-g'arbiy Qirg'iziston hududi, Ketmontepa cho'kmasi va Chotqol hududlari ham kirgan.

1876 yili Qo'qon xonligi Rossiya tomonidag shavqatsizlarcha bosib olindi va Umumrossiya ma'muriy-boshqaruv tizimi joriy qilindi. Farg'ona viloyati tarkibida uezdlar tashkil qilindi. Dastlab Namangan va Chust uezdlari tashkil qilindi. Uezdlar esa o'z navbatida volostlarga bo'lingan.

1918-1924 yillarda Turkiston ASSR Farg'ona viloyati tarkibiga kirdi. 1924 yilda Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston SSR tashkil topdi. Farg'ona viloyati tarkibiga 1926 yili tuzilgan Kosonsoy, Namangan, Norin, Chust, Yangiqo'rg'on tumanlari kirdi.

1941 yilning 6 martida Farg'ona viloyati hududida Namangan va Andijon viloyatlari tuzildi. Ammo Namangan viloyati 1960 yil 25 yanvarda tugatildi. Viloyat qo'shni Andijon viloyatlari qo'shilib, aloxida bir ma'muriy viloyatni tashkil qilgan. Ma'lumki, bu davrda sobik Ittifoqda viloyatlarni yiriklashtirish, "Sovnarxoz"larni shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Xuddi shunday o'zgarishlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ham yuz bergan. Namangan viloyatini 1960 yilda tugatilishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davr Namangan viloyatini qo'shni Andijon va Farg'ona viloyatiga nisbatan iqtisodiy, ma'daniy va ma'rifiy rivojlanish jihatidan sezilarli orqada qolishiga olib keldi. 1967 yil 18 dekabrda esa qaytadan tashkil topdi.

1991 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi. Dastlabki mustaqillikka erishgan davrda Namangan viloyatida siyosiy-ma'muriy jihatdan Mingbuloq, Kosonsoy, Namangan, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on qishloq tumanlari va Namangan shahriga bo'lingan. Namangan viloyatida 6 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar-Namangan, Kosonsoy, Haqqulobod, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust shaharlari, 12 ta shaharchalar - ya'ni, Jomasho'y, Toshbuloq, Pop, Oltinkon, Navbahor,

Uyg'ursoy, Halqabod, Chorkesar, To'raqo'rg'on, Oqtosh, Uychi, Yangiqo'rg'on va 99 ta qishloq fuqarolar yig'ini mavjud bo'lgan.

2009 yilda mamlakatda amalga oshirilgan urbanistik siyosat natijasida Namangan viloyatida urbanizatsiya darajasi mamlakatdagi ko'rsatkichdan ortib ketdi. Bu o'z navbatida viloyatning siyosiy ma'muriy tuzilishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda viloyatning ma'muriy-xududiy bo'linishi viloyatga buysunuvchi 1 ta shahar, 11 ta qishloq tumani, 7 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar va 120 ta shaharchalardan iborat. Shuningdek, bu erda 91 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 403 ta qishloq aholi punktlari mavjud (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishi

№	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan vaqti	Ma'muriy markazi	Maydoni ming km ²	Shaharl ar soni	Shaharchal ar soni
1	Kosonsoy	26.12.1793	Kosonsoy sh	0,52	1	10
2	Mingbuloq	22.12.1964	Jomasho'y sh-cha	0,74		7
3	Namangan	29.09.1926	Toshbuloq sh-cha	0,25	1	10
4	Norin	12.01.1973	Haqqulobod sh-cha	0,21	1	8
5	Pop	29.09.1926	Pop sh	2,91	1	15
6	To'raqo'rg'on	07.12.1970	To'raqo'rg'on sh	0,28	1	13
7	Uychi	09.01.1967	Uychi sh-cha	0,31		13
8	Uchqo'rg'on	09.05.1935	Uchqo'rg'on sh	0,30	1	4
9	Chortoq	27.12.1980	Chortoq sh	0,38	1	10
10	Chust	29.09.1926	Chust sh	0,93	1	11
11	Yangiqo'rg'on	29.09.1926	Yangiqo'rg'on sh-cha	0,53	1	19
	Viloyat bo'yicha			7,44	8	120

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Qishloq tumanlari orasida maydoni bo'yicha Pop va Chust ajralib turadi. Xususan, Pop tumanining maydoni eng katta bo'lib (2,91 ming kv. km), u viloyat umumiy xududining 39,1 foizini egallaydi. Chust tumanining maydoni 0,91 ming kv.km, kichigi esa Norin tumani xisoblanadi. Bu boradagi geografik koeffitsienti 13,8 ga teng. Demak, viloyat tabiiy-xo'jalik nuqtai nazaridan ancha katta ichki xududiy tafovutlarga ega.

Viloyatda birinchilar qatorida tashkil etilgan tumanlar Namangan, Chust, Pop va Yangiqo'rg'on bo'lib, ular respublikamizda dastlabki - 1926 yilda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlarga to'g'ri keladi. Tarixiy nuqtai nazardan eng so'nggisi esa Chortoq tumani, u 1980 yilda Yangiqo'rg'on tumanidan ajralib chiqqan.

2.2. Viloyat aholi soni dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar

Aholi soni ma'lum bir hududda yashovchi aholining umumiy soni va miqdoriy demografik tavsiflardan hisoblanadi. Aholi soni tug'ilish, o'lim natijasida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuningdek, hududlar aholi soni o'zgarishida migratsiya ham muhim rol o'ynaydi.

Aholining miqdoriy va sifatiy o'sishi va joylashuvi hududlarni demografik rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Aholining son jihatdan o'zgarishi, aholining takror barpo bo'lishi hududning tarixiy taraqqiyoti va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq holda ro'y beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikadagi mavjud demografik vaziyatni hisobga olish, aholi soni, uning dinamikasi, tarkibi va joylashish xususiyatlarini tahlil etish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Farg'ona mintaqasining eng katta viloyati hisoblangan Namangan viloyati aholi sonining kattaligi, zichligi, mamlakatda ushbu viloyatning o'ziga hos demografik jarayonlarga ega ekanligidan dalolat berib turadi. Ushbu jarayonlarni to'g'ri tushunish uchun aholi soni, dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni atroflicha tahlil etib, ularga to'g'ri va oqilona baho berish lozim.

Tarixan sug'orma dehqonchilik mavjud bo'lgan Namangan viloyati mamlakat viloyatlari ichida o'ziga xos yuqori demografik salohiyatga ega viloyat hisoblanadi. Viloyatda mamlakat aholisining qariyb 8,4 foizi qismi istiqomat qilib, demografik salohiyatga ko'ra oldingi o'rinlarda turadi.

Namangan viloyati-O'zbekiston Respublikasining o'ziga hos yo'l bilan shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi viloyatlaridan biridir. Viloyat aholi dinamikasining tahlili uning o'zgarishi sezilarli bo'lgan va bir-biridan farq qiluvchi

ijtimoiy-iqtisodiy davrlarni alohida ajratishga imkon beradi. Namangan viloyati aholi dinamikasida respublikada bo'lgani kabi, umumiy xususiyatlar mavjud. Shu bilan birga aholisi sonining o'zgarishiga faqat mintaqaning o'ziga xos bo'lgan omillar va shart-sharoitlar ham ta'sir ko'rsatmoqda (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati aholisining dinamikasi

Yillar	Aholi soni		Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish surati (foiz his)		Namangan viloyatining O'zbekiston aholisidagi salmog'i
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
1959	8119	605	-	-	7,4
1970	11799	847	3,8	3,4	7,2
1979	15391	1100	3,4	3,3	7,1
1989	19780	1477	2,8	3,4	7,5
1991	20607,7	1551,8	1,9	2,5	7,5
1992	21106,3	1598,1	2,4	2,5	7,6
1993	21602,2	1645,6	2,3	2,9	7,6
1994	22091,9	1693,4	2,3	2,9	7,7
1995	22461,6	1735,2	1,7	2,5	7,7
1996	22906,5	1780,4	2,0	2,4	7,8
1997	23348,6	1822,1	1,9	2,3	7,8
1998	23772,3	1858,0	1,8	2,0	7,8
1999	24135,6	1890,7	1,5	1,7	7,8
2000	24487,7	1924,3	1,4	1,8	7,8
2001	24813,1	1953,2	1,3	1,5	7,9
2002	25115,8	1982,7	1,2	1,5	7,9
2003	25427,9	2013,7	1,2	1,6	7,9
2004	25707,4	2042,5	1,1	1,4	7,9
2005	26021,3	2073,2	1,2	1,5	7,9
2006	26312,7	2103,6	1,1	1,5	8,0
2007	26663,8	2134,5	1,3	1,5	8,0
2008	27072,2	2174,3	1,5	2,0	8,0
2009	27533,4	2217,2	1,7	2,0	8,0
2010	28001,4	2258,5	1,7	2,0	8,1

2011 ⁷	29123,4	2379,5	4,0	5,3	8,2
2012	29555,4	2420,6	1,5	1,7	8,2
2013	29993,5	2458,7	1,5	1,7	8,2
2014	30492,8	2504,1	1,7	1,8	8,2
2015	31022,5	2554,2	1,7	2,0	8,2
2016	31575,3	2603,4	1,8	1,9	8,2
2017	32120,5	2652,4	1,7	1,9	8,3

Jadval O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Kuzatilayotgan davr, ya'ni 1959-2017 yillar mobaynida aholi soni tez sur'atlar bilan o'sdi. Namangan viloyatida 1959 yilda aholi soni 605 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 2652,4 ming kishiga etdi (2-jadvalga qarang). 58 yil mobaynida mintaqa aholisi 4,4 barobarga ko'paydi. Bu davr ichida mamlakat aholisi 4 barobar o'sishga erishgan, ya'ni viloyat aholi sonining o'sishi mamlakat aholisiga nisbatan yuqori bo'lib kelgan. Ushbu davr mobaynida Namangan viloyati aholisining mamlakat aholisidagi salmog'i 7,4 foizdan 8,3 foizgacha o'sishga erishdi. Bundan ko'rinadiki, respublika aholisiga nisbatan Namangan viloyati aholisi o'sish sur'ati yuqori bo'lib keldi. Shu bilan bir qatorda, kuzatilayotgan davrda Namangan viloyati aholisi dinamikasiga Respublika aholisi o'sishi bilan farq qiluvchi davrlarga ajratish mumkin.

Farg'ona mintaqasi aholi dinamikasida ikki davrni ajratish mumkin:

1. Aholi o'sishi mamlakat aholi o'sishidan past bo'lgan davr (1959-1979 yillar);
2. Aholi o'sishi mamlakat aholi o'sishidan yuqori bo'lgan davr (1979 yildan boshlab);

Birinchi davr, ya'ni 1959-1979 yillarda Namangan viloyati aholisi respublika aholisidagi salmog'i 7,4 foizdan 7,1 foizgacha pasayib bordi. Bu yillar mobaynida viloyat aholisi qariyb 1,8 barobarga ko'paygan bo'lsa, mamlakat aholisi 1,9 marta ko'paydi.

Ikkinchi davr (1979-2017 yillar)da aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati mamlakat aholisi o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Shunga mos holda Namangan

⁷2011 йил 1 январь ҳолатига доимий аҳоли сони тўғрисидаги маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 14 мартдаги “Аҳоли сонининг танлама статистик кузатувини тайёрлаш ва ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 71-сонли қарорига мувофиқ ўтказилган кузатув натижалари асосида келтирилган.

viloyatining mamlakat aholisidagi salmog'i ham mazkur davrda 7,1 foizdan 8,3 foizga ortganini kuzatish mumkin. Bu davrda mamlakat aholisi 2,0 marta ortgan bo'lsa, Namangan viloyatida bu ko'rsatkich 2,4 ga teng bo'ldi.

Namangan viloyatining 1959-2017 yillardagi aholi dinamikasidagi o'zgarishlar mamlakat miqyosidagi salmog'ining doimiy o'zgarib turishiga sabab bo'ldi.

Tug'ilish-bu biologik tabiatga ega va qat'iy ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga ega bo'lgan murakkab demografik hodisa hisoblanadi. Shuningdek, tug'ilish aholi tabiiy o'sishining asosiy manbaidir.

Mamlakatda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda amalga oshirayotgan islohatlar aholining sifat tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday o'zgarishlar avvalo aholining turmush tarzi, yashash sharoitining yaxshilanishida, shuningdek, aholining demografik maylida ham o'z ifodasini topmoqda. Sobiq ittifoq davridagi ko'pfarzandlilik an'anasi to'g'risidagi fikrlar va qarashlar endilikda sog'lom va barkamol farzand tarbiyalash kabi fikrlarga o'zgardi. Oilalardagi farzandlar soniga bo'lgan munosabatlar ham o'zgarib bordi.

Mamlakatda 2016 yilda tug'ilish har ming kishi hisobiga 23,2 tani tashkil qilgan bo'lsa Namangan viloyatida nisbatan yuqori 23,4 tani tashkil etdi (3-jadval).

Namangan viloyatida tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublika ko'rsatkichidan katta farq qilmaydi. Shuningdek, kuzatilayotgan davrda mintaqada bu ko'rsatkich mamlakat ko'rsatkichidan farq qilgan davrlarni ajratish mumkin.

Jumladan, 1991-1996 yillarda mintaqada tug'ilish ko'rsatkichi mamlakat ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. 1996-2000 yillar mobaynida past ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, 2001 yildan nisbatan yuqori bo'lib kelmoqda. Shuningdek, 2012 yildan boshlab Namangan viloyatida ham tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublika ko'rsatkichi bilan tenglashib koldi.

**O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida Aholi sonining
o'rtacha yillik o'sish sur'ati**

Yillar	Aholi soni		Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish surati (foiz his)		Namangan viloyatining O'zbekiston aholisidagi salmog'i
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
1959	8119	605	-	-	7,4
1970	11799	847	3,8	3,4	7,2
1979	15391	1100	3,4	3,3	7,1
1989	19780	1477	2,8	3,4	7,5
1991	20607,7	1551,8	1,9	2,5	7,5
1992	21106,3	1598,1	2,4	2,5	7,6
1993	21602,2	1645,6	2,3	2,9	7,6
1995	22461,6	1735,2	1,7	2,5	7,7
1996	22906,5	1780,4	2,0	2,4	7,8
1997	23348,6	1822,1	1,9	2,3	7,8
1998	23772,3	1858,0	1,8	2,0	7,8
1999	24135,6	1890,7	1,5	1,7	7,8
2000	24487,7	1924,3	1,4	1,8	7,8
2004	25707,4	2042,5	1,1	1,4	7,9
2005	26021,3	2073,2	1,2	1,5	7,9
2006	26312,7	2103,6	1,1	1,5	8,0
2007	26663,8	2134,5	1,3	1,5	8,0
2008	27072,2	2174,3	1,5	2,0	8,0
2009	27533,4	2217,2	1,7	2,0	8,0
2010	28001,4	2258,5	1,7	2,0	8,1
2011 ⁸	29123,4	2379,5	4,0	5,3	8,2
2012	29555,4	2420,6	1,5	1,7	8,2
2013	29993,5	2458,7	1,5	1,7	8,2
2014	30492,8	2504,1	1,7	1,8	8,2
2015	31022,5	2554,2	1,7	2,0	8,2
2016	31575,3	2603,4	1,8	1,9	8,2
2017	32120,5	2652,4	1,7	1,9	8,3

Jadval O'zbekiston Respublika Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

⁸2011 йил 1 январь ҳолатига доимий аҳоли сони тўғрисидаги маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 14 мартдаги “Аҳоли сонининг танлама статистик кузатувини тайёрлаш ва ўтказиш чора-гадбирлари тўғрисида”ги 71-сонли қарорига мувофиқ ўтказилган кузатув натижалари асосида келтирилган.

Namangan viloyati tumanlarida ham tug'ilishning umumiy koeffitsienti bir hilda emas(6-jadval).

6-jadval

Namangan viloyati tuman va shaharlarida tug'ilishning umumiy koeffitsienti

Yillar	1991	1997	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Viloyat jami	38,3	26,2	21,1	20,4	21,3	21,3	20,5	22,7	24,3	23,8	23,4
Namangan sh	41,1	26,4	20,3	20,2	22,9	22,4	22,6	24,2	26,3	25,5	24,8
Kosonsoy	43,1	29,3	24,2	22,2	24,1	23,5	21,8	24,1	24,1	23,9	23,5
Mingbuloq	38,6	24,1	22,2	21,3	19,3	20,2	19,1	21,6	23,5	24,0	23,0
Namangan t	39,8	27,0	21,2	20,9	22,3	23,0	21,3	22,7	24,7	23,8	23,9
Norin	37,2	25,2	19,2	20,1	20,7	19,7	20,1	22,6	23,6	22,5	22,8
Pop	37,4	23,6	20,4	21,7	21,2	20,7	19,7	22,0	22,9	22,9	22,3
To'raqo'rg'on	37,5	25,0	20,8	20,0	20,2	21,4	21,1	22,5	25,8	25,7	24,9
Uychi	39,9	26,6	20,8	20,5	21,7	22,2	20,6	23,6	26,6	24,7	24,0
Uchqo'rg'on	37,2	25,5	20,0	18,8	21,1	21,5	19,0	22,2	24,0	22,1	22,1
Chortoq	36,6	24,9	19,9	20,1	19,6	20,9	20,1	22,6	23,5	22,8	22,6
Chust	32,6	26,7	22,0	19,4	19,6	19,1	18,5	20,7	21,8	22,8	22,1
Yangiqo'rg'on	35,5	28,3	23,9	19,9	19,8	19,6	18,9	20,8	22,1	21,5	21,9

Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Namangan shahri va To'raqo'rg'on, Uychi va Namangan tumanlarida tug'ilish koeffitsienti yuqori bo'lsa, aksincha Yangiqo'rg'on, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida bu ko'rsatkich past bo'lib kelgan.

Aholi **o'limi** muhim demografik jarayon bo'lib, turli tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida ro'y beradi. Aholi o'limi darajasi hududlarning ekologik vaziyati, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganligi, moddiy shart-sharoiti, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy muhofaza qilish holatini tavsiflaydigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, aholi tabiiy o'sishida o'lim ham muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush darajasining yuksalib borishi natijasida aholi o'limi yil sayin kamayib

borishiga erishildi. 1991-2016 yillar davomida viloyatda o'lim ko'rsatkichi kamayib bordi.

1991-2016 yillarda mamlakatda o'lim ko'rsatkichi har ming kishi hisobiga 6,3 kishidan 4,8 kishiga, yoki 1,5% ga kamaydi. Namangan viloyatida esa bu ko'rsatkich nisbatan kamroq 1,3% ga teng bo'ldi. Umuman olganda, Namangan viloyatida o'lim koeffitsienti respublika ko'rsatkichidan katta tafovutga ega emas. Lekin, tahlilga ko'ra viloyatda o'lim ko'rsatkichi pastligi kuzatiladi.

O'lim koeffitsienti ham viloyatning tuman va shaharlarida hududiy tafovutga ega (7-jadval).

7-jadval

Namangan viloyati tuman va shaharlarida o'lim koeffitsienti

Yillar	1991	1997	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Viloyat jami	5,8	5,0	5,0	4,8	4,4	4,4	4,6	4,5	4,6	4,7	4,6
Namangan sh	6,1	4,6	5,5	5,0	4,7	4,6	4,9	4,7	5,0	5,0	4,4
Kosonsoy	3,5	3,3	3,0	2,6	2,5	2,6	2,5	2,3	2,5	2,5	2,7
Mingbuloq	8,4	9,1	8,3	7,2	6,2	7,1	7,2	6,5	7,1	6,6	6,8
Namangan t	5,7	5,3	4,9	4,9	4,2	4,1	4,6	4,3	4,3	4,6	5,6
Norin	6,2	5,4	5,3	4,8	4,9	4,3	5,4	4,7	4,9	5,1	5,0
Pop	6,0	5,1	4,9	5,2	5,0	4,6	4,7	4,4	4,6	4,7	4,2
To'raqo'rg'on	5,4	5,0	4,7	4,9	4,2	4,7	4,4	4,4	4,6	4,5	4,4
Uychi	5,9	5,1	5,0	5,4	4,4	5,0	4,9	4,7	4,8	5,2	5,4
Uchqo'rg'on	5,7	5,3	5,0	5,2	4,8	4,7	4,9	5,3	4,9	5,1	4,8
Chortoq	5,0	4,7	4,8	4,5	4,2	4,3	4,5	4,4	4,0	4,3	4,5
Chust	5,8	5,2	4,7	4,4	4,0	4,0	4,5	4,4	4,3	4,3	4,1
Yangiqo'rg'on	5,6	4,6	4,7	4,4	4,1	4,3	4,3	4,6	4,5	4,3	4,5

Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Kuzatitayotgan davrda viloyatda o'lim ko'rsatkichi har ming kishi hisobiga 5,8 dan 4,6 gacha kamaydi. 1991 yilda Namangan shahri, Mingbuloq, Norin va Pop tumanlarida o'lim sur'ati yuqori bo'lgan bo'lsa, tabiiy iqlimiy sharoiti qulay bo'lgan Chortoq va Kosonsoy tumanlarida o'lim sur'ati past bo'lgan. 2016 yilda

Mingbuloq, Namangan va Uychi tumanlarida o'lim darajasi yuqori bo'lgan bo'lsa, Kosonsoy, Pop va chust tumanlarida eng past o'lim kuzatildi.

Aholi dinamikasida aholining tabiiy o'sishi ham muhim o'rin tutadi. Aholi tabiiy o'sishida tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari orasidagi tafovut muhim omil hisoblanadi. Namangan viloyatida aholining tabiiy o'sish sur'ati mustaqillik yillarida mamlakat aholisida kuzatilgani singari kamayib bordi. Shuningdek, tug'ilish va o'lim darajasi mamlakat ko'rsatkichidan farq qilganligi sababli aholi tabiiy o'sishida ham tafovutlar kuzatiladi.

Viloyat tuman va shaharlarida aholi tabiiy o'sishida tafovutlar kuzatiladi (8-jadval).

8-jadval

Namangan viloyati tuman va shaharlarida aholining tabiiy o'sishi

	1991	1997	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Viloyat jami	32,5	21,2	16,1	15,6	16,9	16,9	15,9	18,2	19,7	19,1	18,8
Namangan sh	35,0	21,8	14,8	15,2	18,2	17,8	17,7	19,5	21,3	20,5	20,4
Kosonsoy	39,6	26,0	21,2	19,6	21,6	20,9	19,3	21,8	21,6	21,4	20,8
Mingbulok	30,2	15,0	13,9	14,1	13,1	13,1	11,9	15,1	16,4	17,4	16,2
Namangan t	34,1	21,7	16,3	16,0	18,1	18,9	16,7	18,4	20,4	19,2	18,3
Norin	31,0	19,8	13,9	15,3	15,8	15,4	14,7	17,9	18,7	17,4	17,8
Pop	31,4	18,5	15,5	16,5	16,2	16,1	15,0	17,6	18,3	18,2	18,1
Turakurgon	32,1	20,0	16,1	15,1	16,0	16,7	16,7	18,1	21,2	21,2	20,5
Uychi	34,0	21,5	15,8	15,1	17,3	17,2	15,7	18,9	21,8	19,5	18,6
Uchkurgon	31,5	20,2	15,0	13,6	16,3	16,8	14,1	16,9	19,1	17,0	17,3
Chortok	31,6	20,2	15,1	15,6	15,4	16,6	15,6	18,2	19,5	18,5	18,1
Chust	26,8	21,5	17,3	15,0	15,6	15,1	14,0	16,3	17,5	18,5	18,0
Yangiqo'rg'on	29,9	23,7	19,2	15,5	15,7	15,3	14,6	16,2	17,6	17,2	17,4

Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Namangan viloyatida Namangan shahri, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, tumanlarida tabiiy o'sish yuqori bo'lsa, Mingbuloq, Uchqorg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida tabiiy o'sish past sur'atda bo'lgan.

2.3. Aholi tarkibi va undagi o'zgarishlar

Aholini demografik o'rganishda uning tarkibi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi tarkibi ko'p jihatdan aholining takror barpo bo'lish ko'rsatkichlarida, bolalar, mehnat qilish yoshidagi va nafaqa yoshidagi aholi sonini xisobga olishda, ularga zaruriy ijtimoiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rejalashtirishda, istiqboldagi holatini belgilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aholi soni va tabiiy o'sish sur'atining o'zgarib borishi birinchi navbatda aholining demografik holatiga bog'liq. Demografik holat esa aholining yosh va jinsiy tarkibi, nikohga kirishi va nikohning bekor qilinishi, tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

Aholi tarkibini o'rganishda yosh-jinsiy tuzilishini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Aholining yosh va jinsiy tarkibi hududlarning demografik xolati, ya'ni nikohlanuvchilar soni, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar va migratsiya ta'sirida doimiy o'zgarishda bo'ladi.

Aholining yosh-jinsiy tarkibi tug'ilish va o'lim jarayonlarining natijasi va kelgusida aholining takror barpo bo'lishining asosiy manbaidir. Aholining yosh tarkibi aholining nikohga kirishi, ajralish, tug'ilish va o'lim kabi jarayonlar hamda migratsiyada shakllanadi va rivojlanadi. Aholining jinsiy tarkibi nikohlanish va aholi ko'payishida muhim demografik omil bo'lib xizmat qiladi.

Tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajasi aholining yosh tarkibi bilan bevosita bog'liqdir. Tug'ilish va o'limning natijasida aholining yangilanishi aholining takror barpo bo'lishi deyiladi. Aholining tug'ilishi va o'limi natijasida aholining soni va tarkibi doimo o'zgarib turadi.

XX asrning boshlarida shved demografi G.Zundberg aholining yosh tarkibi buyicha 3 ta asosiy guruhga ajratadi:

1. Progressiv aholi yosh tarkibi-aholi yosh tarkibining bunday turida aholini tabiiy ko'payishi yuqoriligi asosida aholi umumiy sonida bolalar (0-14 yosh)

salmog'i yuqori bo'ladi.

2. Statsionar aholi tarkibi-aholi tarkibida bolalar va kariyalar salmog'i deyarli teng bo'lib aholi soni o'zgarmay turadi.

3. Regressiv aholi tarkibi-aholi tarkibida kariyalar salmog'i yukori bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi qisqargan turda saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi respublika aholisini yosh guruhlariga ajratishda aholining yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa belgilariga ko'ra guruhlashtiradi. Bunda 0-2 yoshgacha go'daklik, yoki bog'cha yoshigacha bo'lgan davr, 3-5 yoshgacha bog'cha davri, 6-7 yosh maktabgacha davr, 8-15 yosh maktab davri, 16 yoshdan yuqori mehnatga layoqatli yosh va hk. Shuningdek, mehnatga layoqatliligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi, ya'ni

- mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);
- mehnat qilish yoshidagi aholi (16-54 yosh ayollar va 16-59 yosh erkaklar);
- mehnatga layoqatli yoshdan o'tgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar hamda 60 va undan yuqori yoshdagi erkalar).

E.Nabiev va A.Qayumovlar aholi yoshini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etishadi. Unga ko'ra 0-14 yosh bolalar, 15-24 yosh o'smir yoshlar, 25-60 yosh mexnat qilish yoshidagi aholi, 60-70 yosh nafaqa yoshidagilar va 70 yoshdan kattalar tarzida guruhlariga ajratiladi⁹.

Aholining yosh tarkibini tuzishda bir, besh va ayrim hollarda o'n yillik yosh guruhlariga ham ajratiladi. Halqaro demostatistika amaliyotida besh yillik yosh guruhiga ajratish qo'llaniladi.

O'zbekiston aholisi tabiiy o'sish dinamikasi hamisha aholi yosh tarkibi o'zgarishida muhim omil hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar O'zbekistonda bolalar o'limi yuqori bo'lgan va tug'ilgan bolalarning 50-60 foizi bolalik va o'smirlik davrida vafot etgan. Aholi tarkibida bolalar salmog'ining ortib borishi birinchi navbatda 1940-1970 yillarda bolalar o'limining keskin kamayishi bilan bog'liqdir. 1940 yilda 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi har mingta

⁹ Nabiev Э. Қайумов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. –Т., “Академия”, 2000. Б42


tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 106,1 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970 yilda 31 tani, 1991 yilda 35 tani va 2016 yilda 10,7 tani tashkil etdi.

1990-2016 yillarda aholining yosh tarkibida 0-14 yoshdagi bolalar salmog'i 40,9 dan 30,1 foizga kamayib, 15-59 yoshdagilar 52,6 dan 62,8 foizga ortgan, 60 yosh va undan kattalar esa 6,5 dan 7,1 foizga ko'paygan. Aholi sonining eng ko'pi 20-24 yosh guruhiga to'g'ri keladi, undan keyingi guruhlarda demografik salohiyat kamayib boradi. Mazkur yosh guruhi asosan nikohga kirish yoshi hisoblanadi. Keyingi yosh guruhidagi (15-19 yosh) aholi sonining kamayib borishi bilan uning sonining o'sishi yana sustlashadi. Ayni vaqtda 0-4 yosh guruhida tug'ilganlar sonining ko'pligi ularning nikohga kirish yoshiga etganda, aholining o'sish sur'ati yana biroz tezlashadi va bu jarayon kelajakda to'lqinsimon tarzda bir necha marta takrorlanib, aholi piramidasi progressiv holatdan regressiv shaklga o'tadi (7-jadvalga qarang).

Bugungi kunda aholi yosh tarkibida 0-14 yoshdagi bolalar salmog'ining kamayishi 2000-2005 yillarda tug'ilish darajasi pasaygan davrga to'g'ri kelganligi bilan izohlanadi. Natijada, 0-14 yoshdagi aholi salmog'ining kamayishi hisobiga 15-59 yoshdagi aholi salmog'i ortishi kuzatiladi. Mamlakatda aholining o'rtacha umr ko'rish davrining ortib borishi e'tiborga olinsa, kelgusida 60 va undan katta yoshdagi aholi salmog'i ham ortib borishini kuzatish mumkin.

9-jadval

O'zbekiston aholisi yosh tarkibi bo'yicha guruhlanishi



Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Hozirgi davrga kelib qator iqtisodiy rivojlangan davlatlarda tug'ilishning qisqarib borishi natijasida qariyalar salmog'i 15-30 foizni tashkil etib, bolalar salmog'i esa qisqargan. Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda esa aksincha, aholi umumiy sonida bolalar salmog'i yuqori 40-50 foizni tashkil etib qariyalar salmog'i esa past 4-7 foizni tashkil etadi. Bunday hollarda aholi takror barpo bo'lishining kengaygan turdagi ko'rsatkichlari kuzatiladi. Frantsuz tadqiqotchisi J.Bojyo-Garne tomonidan quyidagi demografik qarish shkalasi taklif etilgan (10-jadval).

10-jadval

J.Bojyo-Garne tomonidan taklif etilgan demografik qarish shkalasi

Bosqichlar	60 yosh va undan yuqori yoshdagilar salmog'i(foiz xisobida, jami aholiga nisbatan)	Keksalik bosqichlari
Birinchi	8 dan past	Demografik yosh
Ikkinchi	8-10	Demografik qarishning dastlabki pog'onasi
Uchinchi	10-12	Demografik qarilik pog'onasi
To'rtinchi	12 va yuqori	Demografik qarilik
	12-14	Demografik qarilikning dastlabki darajasi
	14-16	O'rtacha darajasi
	16-18	Yuqori darajasi
	18 va yuqori	Juda yuqori darajasi

Mazkur mezon bo'yicha O'zbekiston demografik yosh davlatlar qatoridan joy olgan. Lekin, kelgusida O'zbekistonda aholining keksayish jarayoni davom etishi kutilmoqda.

Aholining jinsiy tarkibini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Mamlakat aholisining yosh va jinsiy tarkibini aniq bilish demografik holatni hisoblab chiqishga va kelajakda qancha aholi bo'lishligini bilishga yordam beradi.

O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar har bir davrning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan. 1991 yilda aholining jinsiy tarkibida erkaklar 49,4 foiz va ayollar 50,6 foiz ga teng bo'ldi. 2016 yilda esa

erkaklar 50,2 foiz va ayollar 49,8 foizni tashkil etdi. Aytish joizki, mustaqillik yillarida aholi jinsiy tarkibida deyarli farq kuzatilmadi. Shu bilan bir qatorda yosh guruhlari bo'yicha jinsiy tarkibda bir muncha o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda 1000 ta erkak kishiga 992 ta ayol kishi to'g'ri kelmoqda¹⁰. 1991 yilda erkaklar sonining ayollar sonidan ko'pligi 20-24 yoshgacha kuzatilgan bo'lsa, 2000 yilda 25-29 yosh guruhi, 2007 yildan 35-39 yosh guruhigacha erkaklar soni ustun bo'lgan. 2016 yilda ham jinslar nisbatidagi ushbu farq 35-39 yoshgacha davom etadi. Keyingi yosh guruhlari ayollar soni erkaklar sonidan ortib boradi. Ko'rinib turibdiki, erkaklar sonining ayollardan ko'p bo'lishi 20-24 yoshdan 34-39 yoshgacha ortib bordi. Bu esa bolalik va o'smirlik davrida o'g'il bolalar o'limining kamayishi bilan izohlanadi. Nikohga kirish yoshidagi jinslar o'rtasidagi farqlar aholining nikohlanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Xorazm va Buxoro viloyatlarida ayollar soni erkaklardan ko'pchilikni tashkil etsa, boshqa viloyatlarda erkaklar soni ayollardan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Namangan viloyati aholisining jinsiy va yosh tarkibi o'ziga xos xususiyatga egadir. Inqilobdan oldingi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy rivojlanish jarayonlar bilan bog'liq xolda quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan:

- erkaklar ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilishi;
- oiladagi uy-ro'zg'or yumushlari asosiy qismini ayollar zimmasiga tushishi;
- qizlarni erta turmushga berishi;
- ko'p bolali onalar xamda tibbiy xizmat ko'rsatish va onalikni muhofaza qilishdagi qoloqlik ayollar o'rtasida o'limni yuqori darajada bo'lishiga olib kelgan.

Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida 1991 yilda 52,3 foizni erkaklar, 47,7 foizni ayollar tashkil qildi. Aholi tarkibidagi ortiqcha ayollarning asosiy qismi yuqori 40 yoshdan yuqoridagi ayollar xisobiga to'g'ri kelgan (11-jadval).

¹⁰www.gender.stat.uz

Namangan viloyati aholisi yosh va jinsiy tarkibi salmog'i (1991 yil)

Yosh guruhi	Jami aholi	Erkaklar	%	Ayollar	%
0 – 4	174149	91079	11,2	83070	10,5
5 – 9	155663	80691	9,9	74973	9,5
10 – 14	126698	65280	8,1	61418	7,8
15 – 19	129872	66833	8,3	63040	8,0
20 – 24	167346	86114	10,6	81232	10,3
25 – 29	159459	81287	10,0	78173	9,9
30 – 34	135416	68601	8,5	66815	8,4
35 – 39	110831	55831	6,9	54999	6,9
40 – 44	103162	51431	6,3	51731	6,6
45 – 49	85610	41803	5,2	43807	5,5
50 – 54	77945	38099	4,7	39845	5,0
55 – 59	67777	33831	4,2	33946	4,3
60 – 64	41818	20414	2,5	21404	2,7
65 – 69	24662	11895	1,5	12766	1,6
70 – 74	11436	5665	0,7	5772	0,7
75 – 79	12237	5613	0,7	6624	0,8
80 Q	12773	5247	0,6	7526	0,9
Jami	1596854	809714	100	787141	100

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.


Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1991 yilda erkaklar 809,7 ming tashkil qilgan bo'lsa, ayollar esa viloyatda 787,1 ming kishini tashkil etgan, yoki 22.6 ming kishi ortiqdir.

Viloyatdagi turli yoshdagi aholi yosh guruxlarining salmog'i ham o'ziga xos bo'lib ularni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Namangan viloyatida aholining tabiiy o'sishni yuqoriligi, aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mustaqilidan oldingi davrda ham viloyatda aholi tabiiy o'sish sur'a erishgan dastlabki yillarda aholi tabiiy o'sish sur'atining yuqorili bo'lganligi aholi tarkibida 0-14 yoshli bolalar salmog'ini mamlakat ko'rsatkichidan ancha past bo'lishidagi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. 1991 yilda 0-14 yoshli bolalar viloyat aholisini 28,6 foizini tashkil etgani holda 15-59 yoshdagi aholi 64,9 foiz hamda 60 yoshdan

kattalar 6,5 foizni tashkil etgan (12-jadval). Bu jihatga ko'ra viloyat mamlakatda alohida hususiyat kasb etadi.

12-jadval

**Namangan viloyati aholisi yosh tarkibi o'zgarib borishi
(1991-2016 yillar)**



Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Namangan viloyatida 1000 aholiga nisbatan tabiiy o'sish 1991 yilga qaraganda (32,5 kishi) ancha pasaydi. 2000 yilda tug'ilish 21,1 %, o'lim koeffitsienti 5,0 %, tabiiy o'sish 16,1 %ga to'g'ri kelgan, 2010 yilda tug'ilish koeffitsienti 21,3 %, o'lim koeffitsienti 4,4 %, tabiiy o'sish esa 16,9 %ga to'g'ri kelgan. 2009 yil esa tug'ilish koeffitsienti 24,7 %, o'lim 4,9 %, tabiiy o'sish esa 19,8 %ga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda tabiiy o'sish ancha pasaygan va hozirgi kunga kelib tabiiy ko'payish bir necha promillega oshdi. 2016 yilda esa tug'ilish 23,4 %, o'lim esa 4,6 % va tabiiy o'sish 18,8% ga teng bo'ldi. Shuning hisobiga kelgusida umumiy aholiga nisbatan yosh va o'smirlar salmog'i kamayishi kutiladi.

Aholining o'rtacha umr ko'rish davrining ortib borishi hisobiga keksalar salmog'i kuzatilayotgan yillarda 6,5% bo'lgan, 2005-2010 yillarda 5,5% ga kamaygan. Lekin aholi tarkibida 0-14 yosh va 15-59 yoshdagilarning salmog'ida

deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Aholi tabiiy o'sish sur'atini pasayib borishi aholining jinsiy tarkibda xam o'zgarishlarga olib keldi (13-jadval).

13-jadval

Namangan viloyati aholisi yosh va jinsiy tarkibi salmog'i (2016 yil)

Yosh guruhi	Jami aholi	Erkaklar	%	Ayollar	%
0 – 4	289262	151282	11,2	137980	10,5
5 – 9	258557	134027	9,9	124530	9,5
10 – 14	210446	108430	8,0	102016	7,8
15 – 19	215718	111009	8,2	104709	8,0
20 – 24	277962	143036	10,6	134926	10,3
25 – 29	264862	135017	10,0	129845	9,9
30 – 34	224926	113946	8,4	110980	8,5
35 – 39	184090	92736	6,9	91354	6,9
40 – 44	171352	85427	6,3	85925	6,6
45 – 49	142198	69434	5,1	72764	5,5
50 – 54	129466	63283	4,7	66183	5,1
55 – 59	112578	56194	4,1	56384	4,3
60 – 64	69460	33908	2,5	35552	2,7
65 – 69	40963	19758	1,4	21205	1,6
70 – 74	18996	9409	0,6	9587	0,7
75 – 79	20325	9323	0,7	11002	0,8
80 – 84	21216	8715	0,6	12501	0,9
Jami	2652377	1344934	100	1307443	100

Jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

1991 yilda aholi tarkibida erkaklar 52,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda erkaklar salmog'i 50,7 % ga kamaydi. Ayollar salmog'ining ortiqligi 1991 yilda 35 yoshdan yuqori yoshda kuzatilgan bo'lsa, 2016 yilga kelib 40 yoshdan yuqori yoshdagi aholi qatlamiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi tarkibida kuzatilayotgan o'zgarishlarni aholining yosh va jins piramidasida aniq ifodalash mumkin (1-diagramma).

1-diagramma

Namangan viloyati aholisi yosh-jins piramidasi (1991 yil)




Diagramma Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

2-diagramma

Namangan viloyati aholisi yosh-jins piramidasi (2016 yil)




Diagramma Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Namangan viloyati aholisi yosh va jins piramidasi tahlili shuni ko'rsatadiki, 1991 yilda aholi soni eng ko'p bo'lgan yosh guruhi 0-4 va 30-34 yosh guruhlariga to'g'ri kelsa, 2016 yilda ham shunday holat kuzatildi. Ushbu holat iloyatda 1960-1965 yillarda, shuningdek, mustaqillik yillarida aholi tug'ilishi va tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Aholi tabiiy o'sishining bunday davriy tebranishi kelgusida ham davom etishi kutiladi.

Ayrim mamlakat yoki butun jaxon aholisining milliy tarkibini aniqlash juda murakkab vazifadir. Turli mamlakatlarda yashovchi xalqlar ro'yxatini tuzish dastlabki bosqichdanoq aholining biror guruhining qandayligini: etnik birlikni ya'ni aloxida halqni tashkil etadigan yoki xalqning bir qismini (etnografik guruhini) yoki birlikning boshqa bir ko'rinishini, masalan davlat siyosiy ko'rinishini tashkil etishini ko'rsatish zarur, ammo bunday masalalarni hal qilish murakkablik tug'diradi.

Aholining o'sishi tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega. Uzoq o'tmishda O'zbekiston va shu bilan birga Namangan viloyati murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdiki, bu narsa viloyat aholisining dinamikasiga, demografik va migratsion holatlariga, shu bilan birga aholining milliy tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Namangan viloyati aholisining milliy tarkibini aniqlashda va ulardagi uzoq o'tmishdan tortib bugungi kungacha bo'layotgan o'zgarishlarni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib viloyatning milliy tarkibidagi holatlarni qay darajada kechayotganligini bilib olish mumkin. Buni quyidagi jadvallar orqali ko'rib chiqamiz.

Mamlakat mustaqillik yillarida Namangan viloyati aholisi milliy tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi (12-jadval). 2000 yilda viloyat aholisi milliy tarkibida o'zbeklar 87,7% ni tashkil etga bolsa, 2010 yilda 88,4%, 2017 yilda 88,9% ni tashkil etdi. Shuningdek, rus millat vakillarining salmog'i keskin kamayib ketganini kuzatish mumkin. Ruslar 1991 yilda 2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda 0,8% va 2017 yilda 0,4% ni tashkil etdi. Fikrimizcha, rus millat vakillarining salmog'i kelgisuda yanada kamayib borishi kutilmoqda.

Rus millat vakillari bilan bir qatorda Ukrain, Belarus, Moldavan, Gruzin, Ozarbayjon kabi bir qator boshqa millat vakillarida ham salmoq jihatdan kamayish kuzatiladi.

14-jadval

Andijon viloyati aholisi milliy tarkibining o'zgarishi

	2000 йил		2005 йил		2010 йил		2017 йил	
	Аholi soni	Salmoq (%)	Аholi soni	Salmoq (%)	Аholi soni	Salmoq (%)	Аholi soni	Salmoq (%)
Жами	1924285	100	2073226	100	2258519	100	2669415	100
Ўзбеклар	1687347	87,7	1826910	88,1	1996543	88,4	2359206	88,9
Тожиқлар	171782	8,9	185305	8,9	202497	9,0	235030	8,9
Руслар	16269	0,8	14110	0,7	13170	0,6	11857	0,4
Қозоқлар	850	0,04	829	0,04	812	0,04	894	0,03
Қорақалпоқ	111	0,006	115	0,005	124	0,005	156	0,005
Қирғизлар	19336	1,005	20163	1,1	21008	0,9	22279	0,8
Татарлар	6309	0,3	4410	0,2	3485	0,2	2471	0,09
Туркманлар	420	0,02	422	0,02	401	0,02	423	0,01
Қорейслар	3087	0,16	2683	0,1	2463	0,1	3023	0,1
boshqalar	18774	1,0	18279	0,9	18016	0,8	17038	0,64

Jadval Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Hozirgi kunda andijon viloyati aholisi milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i 88,9 % ni tashkil etgani holda, aholi milliy tarkibida o'zbeklarni salmog'i eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib turibdi. Bungacha ham aholi milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i yuqori bo'lib kelgan, lekin bu kabi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lmagan.

O'zbeklardan keyingi o'rinlarda tojik millat vakillari egallab turishibdi. Namangan viloyatida hozirgi kunda eng kam sonli millat vakillari estonlar, latishlar va litvaliklar tashkil etib, estonlar soni 2017 yilda 2 kishi, latishlar 2 kishi va litvaliklar 5 kishini tashkil etishgan.

2.4. Namangan viloyati aholi joylashuvi va urbanizatsiya

Aholining hududiy joylashuvi aholining tarihan kelib o'rnashishi va hududni xo'jalik faoliyati natijasida o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi. Aholining hududiy joylashuvi tarixiy jarayon bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'langan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar tas'rida shakllanadi.

O'zbekiston aholisining hududiy joylashuvidagi o'ziga hos hususiyatlari Farg'ona mintaqasida ham kuzatiladi. Aholi qadimdan asosan tabiiy, iqtisodiy, geografik qulayliklarga ega bo'lgan mintaqa va vohalarda zich yashab kelgan. Farg'ona, Zarfshon vodiylari, Xorazm va Toshkent vohalari aholi yashashi uchun qulay bo'lganidan aholi qadimdan o'zlashtirilib kelingan. O'zbekistonda aholining eng zich joylashgan arellari ham aynan shu joylarda joylashganligi ham bejiz emas. Yashash uchun noqulay bo'lgan cho'llarda va suv manbalari bo'lmagan hududlarda aholi siyrak tarqalgan yoki u yerlarda aholi umuman yashamaydi.

Farg'ona mintaqasi aholisining hududiy joylashuviga ham tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar kuchli ta'sir etgan.

Farg'ona mintaqasi aholisining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy omillarga nazar tashlansa, aholi ko'proq gidrografik ob'yeklar yaqinida nihoyatda zich joylashganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Sirdaryo, Norin, So'x, Isfara, Isfayramsoy, Oqbo'yra, Qoradaryo, Qoldiqdaryo, Aravonsoy, Shahrihonsiy, Kosonsoy, Chortoqsoy, Namangansoy, G'ovosoy daryolari, Katta Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Janubiy, Farg'ona va Katta Andijon kanallari havzalarida aholi juda ko'p va zich joylashgan. Farg'ona mintaqasida aholi eng yuqori zichlik mana shu joylarga to'g'ri kelishi ham bejiz emas, albatta.

Yaqingacha yashash uchun noqulay sanalgan Markaziy Farg'ona, Qoraqolpoq, Bo'z va Ulug'nor cho'llari bugungi kunda o'zlashtirilib, aholi ko'payishi natijasida zichlik miqdori ortib bormoqda.

Namangan viloyati Farg'ona mintaqasi viloyatlari ichida aholi zichligi eng siyrak viloyat hisoblanadi. Mintaqada, balki mamlakatda aholisi eng zich joylashgan eng zichi Andijon viloyati hisoblanib, har bir km.kv. maydonga 689 kishi tog'ri keladi.

Mintaqada Farg'ona viloyati aholi zichligiga ko'ra keying o'rinni egallab, bir km.kv maydonga 527,3 kishi to'g'ri kelsa, Namangan viloyati so'nggi o'rinni egallab 356,5 kishini tashkil etadi.

Farg'ona mintqasida aholi joylashuvi va zichligiga ko'ra aholishunos olim R.Qodirov quyidagi mintaqalarni ajratadi¹¹:

- Shimoliy Farg'ona areali;
- Sharqiy Farg'ona areali;
- Janubiy Farg'ona areali;
- Markaziy Farg'ona areali;
- G'arbiy Farg'ona areali.

Namangan viloyatining shimoliy qismida joylashgan Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Chortoq, Uchqo'rg'on, Norin, Uychi, Namangan, To'raqo'rg'on tumanlari *Shimoliy Farg'ona areali* ga kiritiladi. Ushbu tumanlarda aholining o'rtacha zichligi 300-500 kishini tashkil qiladi. Shimoliy areal ma'muriy jihatdan asosan Namangan viloyati tumanlaridan tashkil topgan bo'lib, eng qulay tabiiy sharoitga ega va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hudud hisoblanadi.

Markaziy Farg'ona arealida aholining o'rtacha zichligi 100-400 kishini tashkil etib, bu arealga Namangan viloyatining Mingbuloq tumani kiradi. Mazkur hududga kiruvchi tumanlar hududi keying yillarda keng miqyosda o'zlashtirilmoqda. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi uchun noqulay hisoblangan Markaziy Farg'ona cho'llari mavjudligi aholi zichligining past bo'lishiga olib kelgan. Mingbuloq tumanida aholizichligi 159 kishini tashkil qiladi.

G'arbiy Farg'ona arealiga kiruvchi Namangan viloyatining Pop, Chust tumanlari kiradi. Pop tumanida aholi zichligi 70-75 kishini tashkil etsa, Chust tumanida 270 kishini tashkil qiladi. Bu areal boshqalariga nisbatan aholisi siyrak joylashganligi bilan ajralib turadi. Aholi yashashi va qishloq xo'jaligi uchun noqulay hisoblangan tog' va adirliklar mavjudligi uchun ham bu tumanlarda zichlik uncha yuqori emas. Arealda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va foydali qazilma konlarining topilib ishga tushirilishi munosabati bilan ham aholi zichligi ortib bormoqda. Angren-Pop temir yo'lining ishga tushirilishi hududning keng ko'lamda o'zlashtirilishi va aholining zichligi ortishiga olib keladi.

Shaharlar kishilik jamiyatning tengdoshi bo'lib, ularning paydo bo'lishi,

¹¹ Qodirov R.B. Farg'ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari.-T.: 2016.-68-69 b.

shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Er sharidagi eng kadimiy shaharlar Kadimgi Bobil, Misr, Vavilon, qadimgi Rimda paydo bo'lgan.

Shaharlar kelib chiqishiga eng avvalo ijtimoiy mexnat taqsimoti sabab bo'lgan. Ma'lumki, dexqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi natijasida dastlabki mehnat taqsimoti paydo bo'ldi. Ammo buning natijasida shaharlar vujudga kelmadi. Dexqonchilik, ayniqsa sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi aholining o'troqlashishiga olib keldi, doimiy aholi punktlarini vujudga keltirdi. Sug'orish inshootlarining qurilishi, ularni ximoya qilish tufayli kishilarning birgalikda jamoa bo'lib yashashiga olib keldi. Natijada aholi punktlari kattalashib, yiriklashib bordi.

Keyinchalik dexqonchilikdan xunarmandchilik va savdo ajralib chiqdi. Bu esa shaharlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Shaharlar sinfiy jamiyat bilan tengdosh. Ammo borgan sari shahar bilan qishloq o'rtasida farq ortib, shaharlarning ustuvorligi sezilib boradi.

Respublikada XX asr 60-yillaridan shaharlar geografiyasi tezlik bilan o'rganila boshladi. Qisqa davr ichida bu fan tezlik bilan rivojlandi. Bugungi kunda shaharlar geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining muhim bir qismiga aylandi. Shaharlar ishlab chiqarish kuchlarni hududiy tashqil etilishining asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib, iqtisodiy geografik tadqiqot ob'ektlari ichida o'ziga xos xususiyatga ega. Shaharlar mamlakat va rayonlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'zida yakkol mujassamlashtiradi, milliy iqtisodiyot, ilmiy-texnik taraqqiyot va siyosiy mustaqillikni mustaxkamlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida 1960 yillarda urbanizatsiya darajasi ko'tarildi va aholining 28,2 foizi shaharlarda istiqomat qildi. Urbanizatsiya darajasi 1959-79 yillarda bir qator aholi punktlariga shahar maqomi berilishi munosabati bilan 31,0 foizga teng bo'ldi. Keyingi 1980-2008 yillarda shahar va qishloq aholisi nisbatida muxim o'zgarishlar kuzatilmadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda 68-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-

hududiy to'zilishini takomillash- tirishga doyr kushimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qapop kabul qilindi. Uning ta'sirida mamlakat urbanizatsiyasida, xususan shahar va qishloq aholisi taqsimlanishi bo'yicha katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Shuning uchun respublikada urbanizatsiya darajasi 50 foizdan oshib ketdi. Bunday xolat Namangan viloyatida ham kuzatildi. Viloyat shaharlariga jami aholining 63,4 foizi to'g'ri keldi.

Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayoni rivojlangan deb xisoblash mumkin. 2017 yil 1 yanvar ma'lumotlariga ko'ra, mintaqada 2652,4 mingga yaqin aholi shaharlarda yashagan. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra Namangan viloyati mintaqaviy viloyatlari va respublika ko'rsatkichidan yuqorida turadi. Jumladan, bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 57,0 foiz va Andijon viloyatida 52,5 foizni tashqil etadi.

Namangan viloyati garchi industrial taraqqiyoti qo'shni Andijon va Farg'ona viloyatlariga nisbatan sust bo'lsa-da, lekin viloyatda urbanizatsiya darajasi yuqori. Namangan viloyatida shahar aholisi soni 1618,8 ming kishini tashqil etadi. Viloyatda urbanizatsiya darajasi 63,4 foizga teng va bu Farg'ona mintaqasi uchun eng yuqori ko'rsatkich xisoblanadi.

Shaharlar taraqqiyotida viloyat markazi bo'lgan **Namangan** shahri yaqqol ko'zga tashlanib turadi va aholi soni so'nggi chorak asr ichida juda tez sur'atlar bilan o'sdi. Masalan, 1979 yilda mazkur shaharda 226,6 ming kishi yashagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilda 484,9 ming kishidan ortib ketdi. Natijada, Namangan shahri bu davr ichida aholi soniga ko'ra Andijon shahrini ortda qoldirib ketdi va Farg'ona mintaqasida aholisining soniga ko'ra birinchi raqamli shaharga aylandi. Respublika shaharlari orasida faqat Toshkent (2 371,3 ming kishi) va Samarqand (513,6 ming kishi) shaharlaridan keyingi 3-o'rinni egallaydi.

Namangan shahri respublikaning qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi. Shaharga 1610 yilda asos solingan. U mintaqaning shimoliy qismida Shimoliy Farg'ona kanali bilan Namangansoy kesishgan joydan o'rin olgan. Shahar "Nomak kon" deb atalgan tuz koni yaqinida vujudga kelgan. Shuning uchun ham u keyinchalik Namangan deb nom olgan.

Namangan viloyatida shaharlar tizimi yaxshi rivojlangan. Viloyatning Chust (70,7 ming kishi), Chortoq (54,4 ming kishi), Kosonsoy (51,8 ming kishi) shaharlari aholisi sonining ko'pligi va tez o'sishi bilan Andijon viloyati shaharlaridan farqlanadi.

Chust milliy xunarmandchilik markazi bo'lsa, Chortoq - rekreatsion markaz xisoblanadi. Ushbu shaharlar bu jihatlari bo'yichamintaqada mashxurdir.

Namangan viloyatida ham shaharlar aglomeratsiyasi tarkib topib bormoqda. Namangan aglomeratsiyasi tarkibiga viloyat markazidan tashqari To'raqo'rg'on, Chortoq shaharlari ham kiritiladi. Jami bo'lib 788,8 mingdan ortiq aholi ushbu aglomeratsiya tarkibiga kiritiladi. Namangan aglomeratsiyasi aglomeratsiyasi monotsentrik aglomeratsiyalar turkumiga kiritiladi.

HULOSA

Namangan viloyati O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo hududida takrorlanmas tabiiy manzaralarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Viloyat O'zbekistonning Farg'ona mintaqasi viloyatlari o'rtasida maydonining kattaligi jihatidan birinchi o'rinda turadi. Namangan viloyati maydoni 7,44 ming kv.km. Bu Farg'ona iqtisodiy rayonining 40,2 foizi, mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni demakdir.

Aholisi, 2017 yil dastlabki ma'lumotlariga qaraganda, 2652,4 ming kishi yoki respublika aholisining 8,3 foizi shu mintaqada yashaydi. Vodiya, garchi viloyat o'zining maydonini nisbatan kattaligi bilan ajralib tursada, aholi soni bo'yicha u Farg'ona va Andijon viloyatlaridan orqada turadi. Biroq shunga qaramasdan, respublika miqyosida Namangan viloyati aholisi zich joylashgan xududlar qatoriga kiradi.

Mazkur Namangan viloyati aholisi va unga hos hususiyatlar mavzusidagi BMI o'rganish quyidagi hulosasi, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi:

- Namangan viloyati mamlakatimizning 1,6 foiz maydoni tashkil etgani holda respublika aholisining 8,3 foizi shu mintaqada yashaydi;
- Viloyat ma'muriy-xududiy tuzilishiga ko'ra 1 ta viloyatga buysunuvchi shahar, 11 ta qishloq tumani, 7 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar va 120 ta shaharchalardan iborat. Shuningdek, bu erda 91 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 403 ta qishloq aholi punktlari mavjud;
- Namangan viloyatida tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublika ko'rsatkichidan katta farq qilmaydi;
- 1991-2016 yillarda viloyatda o'lim ko'rsatkichi har ming kishi hisobiga 5,8 kishidan 4,6 kishiga, yoki 1,2% ga kamaydi;
- Namangan viloyatida aholining tabiiy o'sish sur'ati mustaqillik yillarida mamlakat aholisida kuzatilgani singari kamayib bordi;
- Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida 1991 yilda 52,3 foizni erkaklar, 47,7 foizni ayollar tashkil qildi. Aholi tarkibidagi ortiqcha ayollarning asosiy qismi yuqori 40 yoshdan yuqoridagi ayollar xisobiga to'g'ri kelgan;

- 1991 yilda aholi soni eng ko‘p bo‘lgan yosh guruhi 0-4 va 30-34 yosh guruhlariga to‘g‘ri kelsa, 2016 yilda ham shunday holat kuzatildi. Ushbu holat iloyatda 1960-1965 yillarda, shuningdek, mustaqillik yillarida aholi tug‘ilishi va tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi;
- Viloyatda urbanizatsiya darajasi 63,4 foizga teng va bu Farg‘ona mintaqasi uchun eng yuqori ko‘rsatkich xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I. A. Mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi T.: 2016
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси
3. Abdullayev O. Namangan viloyati. Namangan, 1995
4. Abdullayev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. Namangan, 2000
5. Abdurahmonov Q. Abduramanov Q. "Demografiya" Toshkent, 2010
6. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" T. O'qituvchi, 1994 y
7. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, "O'qituvchi" 1990 y
8. Bo'rieva M. "Demografiya asoslari" (ma'ruzalar matni). T. 2001 y.
9. Bo'riyava M. "O'zbekistonda oila demografiyasi" T.: 1997 y
10. Vahobov H., Tillaboeva M.. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T. O'qituvchi, 2001 y.
11. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T., Universitet, 2000 y.
12. Qayumov A. Yakubov O'. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" Toshkent, 2010
13. Qodirov R. B. Aholi va mehnat resurslari. – Andijon, 2010.
14. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot T.: 2013
15. Soliyev A, Nazarov M, Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: Mumtoz so'z, 2010
16. Yusupov M. "Andijon viloyati" Farg'ona-2005
17. Statistic to'plam. O'zbekiston aholisi 2014. T.: 2014
18. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi Toshkent 2004 y "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" nashriyoti

Internet saytlari:

www.stat.uz

www.gender.stat.uz

www.geografiya.ru

www.naesmi.uz

www.referat.arxiv.uz

www.en.wikipediya.org

Foydalanilgan manbalar

1. Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari